

«TASDIQLAYMAN»

Filologiya fakulteti

dekani: _____ p.f.n. S. Misirov

«__» _____ 2014 yil

Muhr

Namangan Davlat Universiteti
Filologiya fakulteti
Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrası

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlab topshirish rejasi

Talabaning ismi, sharifi
va otasining ismi:

Nematjonova Saida Avazhon qizi

Guruxi: 401

O'quv yili: 2013-2014

Mavzu:

“So'z birikmalari hosil bo'lishida grammatik shakl va uning turlari”

Ilmiy rahbar:

f.f.n. B. Xolmirzayev

Taqrizchilar:

1. Ichki taqriz:

katta o'qituvchi A. Bohodirov

2. Tashqi taqriz:

dots. M. Saidova

Namangan davlat universiteti rektorining buyrug'i:

NAMANGAN-2014

R E J A :

№	Ish mazmuni	Bajarish muddati
1.	Bitiruv malakaviy ish mavzuini tanlash	2013 yil 10 sentabr
2.	Mavzu rejasini tuzish	2013 yil 10-20 sentabr
3.	Manba to'plash va tahlil qilish	2013 yil 20 sentabr 2014 yil 10 yanvar
4.	BMI ni birinchi nusxasini tayyorlash va ilmiy rahbar, maslahatchiga ko'rsatish va o'qitish	2014 yil 25 yanvar
5.	Ilmiy rahbar ko'rsatgan kamchiliklarni tuzatish	2014 yil 1 martgacha
6.	Ilmiy rahbar va kafedra mudiri ishtirokida ilk muhokamadan o'tkazish	2013 yil 25 martgacha
7.	Kamchiliklarni tuzatish, annotasiya yozish	2014 yil 25 mart 10 aprel
8.	Taqrizlar olish va muhokamaga topshirish	2014 yil 10 aprel –25 aprel
9.	Kafedra yig'ilishida muhokama qilish	2014 yil 25 aprel – 10 may
10.	BMI ni olingan taqrizlar bilan birga muqovalangan holda kafedra mudiriga topshirish	2014 yil 10-15 may
11.	BMI ni himoya qilish	DAK jadvali bo'yicha

BMI 2014 yil 15 mayga qadar kafedra mudiri tomonidan qabul qilinadi.

Shu muddatgacha topshirmagan talaba Davlat Attestatsiyasiga qo'yilmaydi.

Talabaning imzosi: _____
 Ilmiy rahbar imzosi: _____
 Guruh rahbari imzosi: _____
 Kafedra mudiri imzosi: _____

"__" _____ 2014 yil

Eslatma

BMI Davlat standarti talablari asosida rasmiylashtiriladi. Xususan A4 formatda 21x29 sm xajm kattalikdagi oq qog'ozga chap tomondan 30 mm, o'ng tomondan 15 mm, pastki tomondan 25 mm qoldirilgan holda yoziladi.

BMI ning matni qogozning bir tomoniga har sahifaga 26-29 qator yoziladi.

Barcha satr osti izohlari tegishli sahifada keltiriladi. har bir bob, jumladan, kirish va xulosa qismlari hamda ilovalar yangi sahifadan boshlanadi.

Bobning nomi va matn orasi yaqqol ajrab turishi lozim, bobdagi sarlavhalar bobning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

BMI ning xajmi 10-15 ming so'zdan iborat bo'lib, uni talaba o'z dastxati bilan yozishi yoki kompyuterda bajarishi mumkin. Chizma, grafika, shrift va masshtablar amaldagi Davlat standartlariga mos holda qalamda bajarilishi lozim. Ko'zi ojiz va nogiron, dastxati o'qib bo'lmas darajada xunuk talabalarning malakaviy ishi kompyuter komp'yuterda bajarilishi mumkin. Chet tilida yozilgan BMIga davlat tilida annotatsiya yoziladi.

("O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom". 4-5 betlar).

Bitiruv malakaviy ishi tayyor bo'lganidan keyin ilmiy rahbar ish haqida kengaytirilgan xulosa yozib, kafedra mudiriga taqdim etadi.

Xulosada quyidagilar qayd qilinishi shart:

- 1) Muallif o'z oldiga qo'ygan masalani qanchalik hal qilishga erishganligi;
- 2) Bajarilgan ishning bob va fasllari bo'yicha qisqacha tavsifi;
- 3) Maxsus adabiyotlar va birlamchi materiallardan foydalanganlik darajasi, unda ko'chirmachilik holati bor-yo'qligi;
- 4) Ishning nazariy va amaliy ahamiyati;
- 5) Mavzudagi qaysi masalalar yaxshi yoritilgani, qaysilari sust tahlil etilgani yoki qolib ketganligi;
- 6) Bitiruv malakaviy ishining mustaqil bajarilish darajasi;
- 7) Bitiruv malakaviy ishdagi yakuniy fikrlarning ilmiy asoslanganligi va tavsiyalarining amaliy ahamiyati, talabga javob berishi;
- 8) Himoyaga qo'yish mumkin yoki mumkin emasligi.

Ilmiy rahbarning F.I, ilmiy darajasi va unvoni, imzo, sana

Bitiruv malakaviy ishi kafedraning may oyidagi yig'ilishida muhokamadan o'tgach va himoyaga tavsiya etilgach quyidagi ketma-ketlikda terilib, muqovalanadi va kafedra mudiriga topshiriladi

1. Zarvaroq
2. BMI ni tayyorlab topshirish rejasi
3. BMI ning annotatsiyasi
4. Ilmiy rahbar taqrizi
5. Ichki taqriz
6. Tashqi taqriz
7. Mundarija
8. Kirish

ESLATMA: Kirish qismida mantiqiy ketma-ketlikda quyidagi masalalar yoritilishi lozim:

- A) Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati.
 - B) BMIning maqsadi va vazifalari.
 - D) Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari.
 - E) Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.
 - F) Ishning amaliy ahamiyati.
 - E) BMIning tuzilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar.
9. Asosiy qism
 10. Xulosa va tavsiyalar
 11. Ilovalar
 12. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kafedra va dekanat Bitiruv malakaviy ishning jadvaldan chiqmay bajarilayotganligi hamda sifatini nazorat qilib turadi. Rejaning bajarilishi holati kafedraning dekabr va mart oylaridagi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Ushbu topshiriq-reja NamDU Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrasining "25" avgust 2013 yildagi yig'ilishida tasdiqlangan.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakul'teti 5220100-filologiya (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Nematjonova Saida Avazhon qizining "So'z birikmalari hosil bo'lishida grammatik shakl va uning turlari" mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga DAKning

XULOSASI

NamDU DAK OUMTV-ng bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talabalar haqidagi OO'MTVning 225-buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga asosan bitiruvchining malakaviy ishi haqida quyidagi xulosaga keldi:

№	MEZON	Eng yuqori ball	To'plangan ball
1	Bitiruv malakaviy ishi uchun tuzilgan reja. Uning mavzuga mosligi, puxtaligi, muammoni qamrab olishi, uslubi	4 ball	
2	Matnda rejada ko'rsatilgan boblarning ajralib turi-shi, ishning estetik jihatdan ko'rinishi.	3 ball	
3	"Kirish" mazmuni, unda adabiyotlar obzorining berili-shi, mavzuning yangi va muhim tomonlarining ochib berilishi va vazifalarning qo'yilishi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati bayoni.	5 ball	
4	Ishning yozilish uslubi, ravonligi, fikrni ifoda etish maxorati.	4 ball	
5	Ishdagi qismlarning o'zaro bog'liqligi	3 ball	
6	Keltirilgan misollarning soni, turi, ko'p tilliligi.	5 ball	
7	Adabiyotlardan, Internet materiallaridan foydalanish darajasi va ular asosida o'z fikrini, nuqtai nazarini bildirish.	6 ball	
8	Imlo savodxonligi	3 ball	
9	Uslubiy va Grammatik savodxonlik	3 ball	
10	Xusnixat va turli chizmalardan foydalanish	2 ball	
11	Adabiyotlarning to'g'ri ko'rsatilishi	2 ball	
12	Ishning ilmiyligi	20 ball	
13	Ishning amaliy ahamiyati	12 ball	
14	Xulosalarning ilmiylik darajasi	8 ball	
15	Ichki taqriz	3 ball	
16	Ichki taqriz	3 ball	
17	Tashqi taqriz	4 ball	
18	Himoya (ma'ruza) qilish	10 ball	
Ja'mi:		100 ball	

Eslatma: (har bir band bo'yicha aniqlangan ball jamlanadi va umumiy yig'ilgan ballning 100 ga nisbatan foizi chiqariladi).

Talabanning BMI bo'yicha to'plagan reyting bali ____%

DAK raisi: _____

A'zolar: _____

Kotib(a) _____

M.O`.

Sana: "___"_____2014 yil

So'z birikmalari hosil bo'lishida grammatik shakl va uning turlari.

Kirish.

Birinchi bob. Til va uning umumiy tavsifi

- 1.1 Dunyo tillari va ularning ijtimoiy tavsifi.
- 1.2. Tillarining qiyosiy-tipologik hamda lingngvistik tasnifi.

Ikkinchi bob. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalari va ularni yasalish usullari va vositalari

- 2.1. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining turlari
- 2.2. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining yasalishida mustaqil so'zlarning roli
- 2.3. Til sistemasida so'z birikmalarining hosil bo'lishi

Uchinchi bob. So'z birikmalari hosil bo'lishida grammatik shakl va uning turlari.

- 3.1. Sintaktik birliklarni bog'lovchi kategoriyalar va ularning ahamiyatlari
- 3.2. So'z shakli va uning yasalishi
- 3.3. Sintaktik shakl hosil qiluvchi birliklar va ularni so'z birikmalari hosil qilishdagi ahamiyati

Hulosa

Summary

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgach aholi turmush tarzini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantirish kabi ustuvor masalalarga alohida e'tibor qaratilmohda

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish Prezident Islom Karimov "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir" mavzusida ma'ruza hildi. "Mustaqillik yillarida demokratik huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, islohotlarni amalga oshirish borasida erishilgan barcha yutuqlar zamirida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan ququh va asosiy tamoyillar yotibdi", dedi Prezident. Davlatimiz rahbari, "mamlakatni isloh qilish va demokratlashtirish jarayoni qat'iy va izchil tus oldi". "Bosib o'tgan yo'limiz va mamlakatimizning dunyoda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar jarayonida tutgan o'rnini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo'lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlikka berilmasligimiz zarur", dedi.¹

Tadbirkorlik haqida gapirganda, biz avvalambor xususiy tadbirkorlikni o'zimizga tasavvur qilamiz. Aytish kerakki, yurtimiz tarixida tadbirkorlik qadim zamonlardan buyon alohida o'rin tutib keladi. Ota-bobolarimizning o'z eri, o'z mulki, o'z kasbu hunariga ega bo'lish, omilkorlik bilan ish yuritish, tadbirkor va ishbilarmon insonlarni qadrlash borasidagi an'analari haqida ko'p gapirish mumkin. Prezidentimiz o'z nutqida "Men bu o'rinda Sohibqiron Amir Temur bobomizning barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", deb aytgan chuqur ma'noli so'zlarini yana bir bor eslatmoqchiman. Albatta, ilgari

¹ Karimov I. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom - taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabar;

zamonlarda tadbirkorlik balki boshqacha nomlar bilan atalgan bo'lishi mumkin. Ammo, qanday nom bilan atalmasin - uning otini savdogar yoki do'kondor deydimi, hunarmand usta yoki kasanachi deydimi, katta-kichik korxonaga egasi deydimi, bundan qat'i nazar, ajdodlarimiz aynan shu soha hisobidan ro'zgor tebratib, o'z oilasini, el-yurt manfaatini ta'minlab kelgan. Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xalqimizning, millatimizning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib ketgan noyob va ezgu fazilat, desak, mubolaga bo'lmaydi." Taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar sifatida u davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratlashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirish; axborot sohasida fuqarolar va inson huquqlari kafolatlarini, saylov erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini takomillashtirish; nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini kengaytirish va mustahkamlashni aytib o'tdi.

Bugungi kunda jamiyatni modernizatsiya qilish aholi turmush tarzini yanada yaxshilash ishlariga xukumatimiz va shaxsan prezidentimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmohda. Yuqorida ta'kidlangan ma'ruzalarda bu masalalar atroflicha tahlil etilgan. O'tgan yilda erishilgan yutuqlar atroflicha muhokama etildi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham tahlil etildi. Jamiyatni modernizatsiya qilishning yana bir muxim omili bu yosh avlodni barkamol avlodni barkamol inson etib tarbiyalash masalasidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab keskin ortdi. Xususan, ingliz tili yoshlarimiz tomonidan sevib o'rganilayotgan tildir. Xorijiy tilni o'rganuvchi xar bir shaxs xususan til mutaxassisi tildagi tarjimaga katta e'tibor qaratishi tabiiy.

Ayrim tilshunos olimlar semantikani talqin etishda kontekstni yoqlamaydilar. Bunday holatning sababi shuki, kontekst masalasini to'liq ta'riflashda nazariy va amaliy qiyinchiliklar mavjuddir. Tilshunoslar shuni asos qilib ko'rsatadiki, har qanday lisoniy vosita, u qoq bir ma'noli, qoq ikki ma'noli bo'lsin kontekstga tobe bo'lmaslik kerak. Zero, (oqzaki yoki yozma) bayon etuvchi

kishi ayni vositalarning ma'no va mazmunini bilmoqi kerak. Lekin shu narsa ayonki, yuqoridagi fikrlar bo'yicha berilgan har qanday jumla kontekstdan tashhari, unga bog'liq bo'lmagan holda o'z ma'no ifodasini topadi degan nazariya noto'g'ri, o'z navbatida ushbu fikrga isbotli asos ham yo'q. Zero, tilda mavjud bo'lgan barcha lisoniy vasitalar (asosan ko'p ma'noli) o'z ma'nosini faqatgina kontekst yordamidagina oydinlashtiradi. Misol tarzida quyidagi gapni keltirish mumkin:

His friends see John everytime.

(Uning do'stlari Jonni har doyim ko'rishadi yoki tushunishadi)

Ushbu misolda berilgan "to see" fe'li luqatlarda "ko'rmoq, "tushunmoq" kabi ma'nolarga to'g'ri keladi va aynan kaysi biri zaruriy tarjima varianti bo'la olishini faqatgina kontekst ochib beradi.

Tajrima faoliyatida til birliklarining leksik hamda grammatik jihatdan ma'nolarini talqin etishdagi eng katta muammolardan biri birliklarining ayni ma'no hususiyatlari va ularning kontekst qurshovuni oydinlashtirish masalasidir.

"Badiiy tarjima kontekst" mavzusida ilmiy ish olib borishda asos shuki, kontekstning tarjimadagi ahamiyatini nazariy va amaliy ko'rsatib berish. Zero, kontekstual tarjima tillarda mavjud bo'lgan va o'z o'rniga ega bo'lgan semantik sistemadagi til birliklarini to'g'ri qiyoslovchi talqin qisoblanadi. O'z navbatida kontekst tarjima amaliyotining ko'r-ko'rona olib borishi va asliyatni noadekvat o'chirilishiga qat'iy to'sib qo'yadi.

O'zga tilga yaratilgan asl nusxa asar qay darajada yuqori saviyada bitilgan bo'lsa, uning tarjima nushasi ham deyarli shu darajada bejirim qayta yangramog'i lozim. Muallif yaratgan badiiy ijodning tarjimada aynan aks ettirilishi kitobhonda asar tili haqida to'g'ri tassavur hosil qiladi va uning g'oyaviy badiiy qiymatini ko'rsata oladi. Aynan shu kabi maqsadlarni amalga oshirilishida kontekstning hizmati nazariy hamda amaliy ko'rsatish niyatida Bitiruv malakaviy ishimni o'rganilgan nazariyalar asosda ushbu masalani imkon qadar chuqur yoritishga haratdim. Ma'lumki, har bir millat tarix va zamon voqealarining faol ishtirokchisiga aylanar ekan, uning jahon civilizasiyasi yoki mamlakatdagi mavqei

va obro' - e'tibori doimo shu millatning salohiyati-aqliy, ma'naviy potensialiga bog'liq bo'lib qoladi. Shuning uchun ham, mamlakat kelajagi uning ta'lim tizimining rivojlanganligi darajasi bilan belgilanadi.

Muhtaram Prezidentimizning qaroriga asosan tasdiqlangan "Barkamol avlod" Davlat dasturi yoshlarning manfaati va huquqlarini himoya qilish sohasidagi etilgan muammolarni o'z vaqtida hal etish, uzluksiz ta'lim tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real iqtisodiyotga va mamlakatning barcha hayot sohalarida ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan mutahassislarga bo'ladigan talabni ta'minlash maqsadini ko'zda tutadi. Mazkur qarorda aytilishicha, "Barkamol avlod" Davlat dasturi ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha juda ko'plab masalalar qatorida quyidagilarni nazarda tutiladi:

- oliy ta'lim muassasalarida yoshlardan munosib ravishda foydalanish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida talab qilingan yo'nalishlar va ihtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil qilish;
- oliy o'quv muassasalaridagi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tahlil qilish hamda yangilash; pedagog kadrlar tayyorlash; va qayta tayyorlashni tashkil etishni takomillashtirish.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik yillari O'zbekiston taraqqiyotida misli ko'rilmagan rivojlanish, taraqqiyot davri bo'ldi va bu jadal olg'a intilish yanada kuchayib bormoqda. Barcha sohada bo'lganidek ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi va rivojlanmoqda. Yoshlarni bilim olishiga, malakali mutahassis bo'lib etishishlariga etarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ko'plab iqtidorli yoshlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'z bilimlarini oshirib qaytishga muvaffaq bo'lishmoqda. O'z navbatida chet tillarga o'qishga va o'qitishga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Bu borada o'qitishning yangi ilg'or-pedagogik texnologiyalaridan foydalanib yoshlarga ta'lim berish qozirgi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Chet tili ta'limni samarali va sifatli amalga oshirish, yoshlarni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash qaqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali

vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Bu o'rinda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashqulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashqulotlari o'zining mazmun va moqiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan etuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shahsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, horijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo qiladi.

Mamlakatimizdagi bunday rivojlanishlar, yuqorida aytib o'tganimizdek barcha sohalar qatori ta'lim sohasini ham chetlab o'tmadi. Balki, ta'limda chet tillarni o'qitishga bo'lgan talab barchadan ko'ra ko'proq e'tiborni talab qilayotgani hech kimga sir emas. Shu sababli chet tillarni yoshlarga talab darajasida o'qita olish, albatta, kuchli bilim, pedagogik mahorat bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlikni talab etadi. Ushbu talab va ehtiyojlar "Ko'p ma'noli va omonim so'zlarning ingliz tilida berilishi" nomli Bitiruv malakaviy ishining mavzusini dolzarbligini belgilaydi. Ushbu ishida tilshunoslikning leksikologiya bo'lmida o'rgniladigan ko'p ma'noli so'zlar hamda omonim

so'zlarning paydo bo'lishi, tildagi taraqqiyoti va ingliz hamda o'zbek tillarida qo'llanilishi qaqida so'z boradi. qar bir bob yakunida muqtasar hulosalar qilingan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bizga ma'lumki, qozirgi davrda ilm-fan sohasida qam kata o'zgarishlar bo'layotgan bir qatorda, ingliz tili tilshunosligi borasida qam ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunga ishimizda foydalanilgan manbalar qam yaqqol misol bo'la oladi. Bular barchasi bugungi kunda ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, chet tillarni o'qitishga bo'lgan talabning ortishi chet tilarni o'qitishda yangi innovacion tehnologiyalarni amalda joriy etishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotimizning eng asosiy maqsadi shundan iboratki, tarjima jarayonida o'girilayotgan har bir lisoniy vositalarga ijodiy yondoshgan holda ularning kontekst yordamida anglashilgan ma'no va mazmun birikmalarni to'g'ri talqin etish hamda keltirilgan misol-namunalar tahlili asosida tarjimada adekvat mahsulga erishishda, asliyatni o'zga tilda ikkinchi nussha sifatida "qayta yaralishi"da kontekstning qanchalik muhim va chuqur ahamiyat kasb etishining ko'rsatib amaliy isbotlashdir.

I Bob

Til va uning umumiy tavsifi

1.1. Dunyo tillari va ularning ijtimoiy tavsifi.

Til kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy ong mahsuli sifatida yuzaga kelgan moddiy, ma'naviy va madaniy boyliklarning ifodasi bo'lgan murakkab tizimdir. Tilning tabiati, mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, ichki mexanizmi va ishlash tamoyillarini ilmiy nazariy jihatdan idrok etishga intilish, uni ta'riflashdagi turlicha nuqtai nazarlar ifodasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, 1) til ijtimoiy ahamiyati e'tiboriga ko'ra: kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa quroli bo'lib, xabar yetkazish, saqlash va qabul qilish vositasidir; 2) ichki qurilish nuqtai nazaridan: til turli unsurlar va ularning o'zaro munosabatini ta'minlovchi qoidalar kombinatsiyasidir; 3) doimiy barqarorligi, yashovchanligi jihatidan: til jamiyat a'zolarining umumiy faoliyati mahsuli bo'lib, nutq tovushlarining doimiy muayyan ma'no doirasida birlashuvi asosida yuzaga chiquvchi hosiladir; 4) aloqa almashuv (kommunikatsiya) nazariyasiga ko'ra: til ma'no tashuvchi kodlar majmuyidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, til bevosita kuzatishda berilmagan ijtimoiy hodisadir. U jamiyat a'zolarining ongida yashovchi, ular uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan hamda fikrni shakllantirish va uni nutq jarayoni asosida ifodalashga xizmat qiladigan unsurlar va bu unsurlarni o'zaro birikishi, bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisidan iborat murakkab sistemadir.

Nutq esa til tizimida mavjud birliklar va qoidalarining so'zlash qobiliyati asosida yakka shaxs tomonidan muayyan kommunikativ (xabar berish, xabar olish) maqsadni amalga oshirish uchun ro'yobga chiqarilishidir. Tilning umri uni yaratgan xalq umridek uzoq muddatli, xizmat doirasi keng, doimiy rivojlanib boyib boruvchi, hajmi o'lchovsizdir. Nutq esa umri qisqa, hajman chegarali bo'lib, monolog, dialog, polilog holatda, og'zaki va yozma shaklda hamda turli badiiy

janrlarda (roman, she'r, drama) yuzaga chiquvchi hosiladir. Shunday qilib, til va nutq orasidagi dialektik aloqani quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Til bevosita kuzatishda berilmagan aloqa imkoniyati - nutq esa ushbu imkoniyatning voqelanishi, ro'yobga chiqishidir.
2. Til barcha uchun umumiy – nutq esa har bir kishining xususiy faoliyatidir.
3. Tilning faoliyat muddati cheksiz, uzoq – nutqning faoliyat muddati esa cheklangan, qisqa.
4. Tildan foydalanish imkoniyati makon va zamon bilan bog'liq emas – nutq jarayoni esa muayyan makon va zamon bilan bog'langan bo'ladi.
5. Til birliklari miqdoran chegaralangan – nutq birliklari esa cheklanmagan, davomiy bo'ladi.
6. Til barqaror (statik) hodisa – nutq esa doimiy harakatlanuvchi (dinamik) hodisadir.

Til va nutqqa xos bu kabi umumiy va xususiyliklarning mohiyatini ilmiy asosda o'rganuvchi fan tilshunoslik fanidir. Tilshunoslik fani tarkiban fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya, morfemika, grammatika kabi bir qancha mustaqil, ayni paytda, o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bo'limlardan tashkil topadi.

Kishilar til vositasida o'z fikrlarini, his-tug'ularini ifodalaydilar. Kishilik jamiyatining rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan til va uning ravnaqi ilm-fan, madaniyat, texnika taraqqiyotini ta'minlashda ham asosiy omil bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi har qanday o'zgarishlar, avvalo til tizimining lug'at boyligida o'z izini qoldiradi. Xususan, ilm-fan, texnika taraqqiyoti yoki jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan yangi narsa-buyumlar, tushunchalar tilning lug'at boyligini yangilanishga olib keladi.

Hozir butun dunyoda 6 milliardga yaqin aholi mavjud bo'lib, ular 3000 ortiq tilda so'zlashadi. Shundan 200 tilda bir millionga yaqin, 70 tilda 5 milliondan ortiq, 13 tilda esa 50 milliondan ortiq kishi so'zlaydi. Qolganlarining har birida bir milliondan oz kishi gaplashadi.

Ma'lum bir millatga mansub bo'lgan xalqning nutqiy ehtiyoji uchun xizmat qiladigan til **milliy til deyiladi**. Xususan, o'zbek tili shu millatga mansub bo'lgan xalq ehtiyojiga xizmat qiladigan tildir. Yer yuzida milliy tillardan tashqari mamlakatlararo va mintaqalararo ahdlashuv, shartnoma hamda bitimlarni rasmiylashtirishda ishlatiladigan **xalqaro tillar** ham mavjud. Ular jumlasiga ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus, arab va xitoy kabi tillar kiradi.

Umumxalq tili, milliy til va adabiy til tushunchalari tilning ijtimoiy taraqqiyot jarayonini o'zida aks ettiruvchi terminlar bo'lib, ular o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqlik bo'lishi bilan bir qatorda, farqli tomonlar ham mavjud. Xususan, umumxalq tili va milliy til, hozirgi davr nuqtai nazaridan qaralganda, bir xil (sinonim) tushunchalardir. Shu bois tilshunoslikda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash hollari ham ko'p uchraydi. Biroq umumxalq tili til taraqqiyotining barcha bosqichini, ya'ni eng qadimdan hozirgacha bo'lgan davrini o'zida mujassamlashtiradi. Milliy til tushunchasi esa ana shu ko'p asrlik tarixning millat shakllangandan keyingi davrinigina ifodalaydi. Demak, umumxalq tili tushunchasi til tarixining barcha bosqichlariga xos tushuncha bo'lsa, milliy til tushunchasi muayyan millatning shakllangandan keyingi davrga xosligi bilan undan farqlanadi.

Umumxalq tili va milliy til doirasiga sheva va lahja (dialekt)lar, oddiy so'zlashuv tili, xalq tili, sotsial jargonlar, argolar hamda adabiy til kiradi. Umumxalq va milliy tillarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan mazkur til shakllari ham o'zaro farqlanadi. Xususan, adabiy til umumxalq tilining yoki milliy tilning oliy kommunikativ (aloqa) shakli bo'lsa, sheva, lahja, oddiy so'zlashuv va boshqa til ko'rinishlari uning quyi shakli hisoblanadi. Ayni paytda ular adabiy tilning doimiy rivojini ta'minlovchi muhim ichki omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo sotsial jargonlar va argolar bundan mustasno bo'lib, ular umumxalq tilining yoki milliy tilning inqirozga uchragan shakllaridir.

Adabiy til muayyan grammatik qonun va qoida me'yoriga kiritilgan til shaklidir. Adabiy tilning ikki xil ko'rinishi, ya'ni og'zaki va yozma shakli mavjud. Og'zaki shakl yozma shaklga nisbatan qadimiyroq bo'lib, u umumxalq tilining: 1)

qayta ishlanish; 2) uslubiy tarmoqlanishi; 3) an'anaviy, ommaviy va odatiy qiyofa kasb etishi; 4) nutqiy va estetik ehtiyojlarga xizmat qilishi; 5) xalqchilligi; 6) nisbiy konservativligi; 7) ustdialektlilik kabi dastlabki me'yoriy asoslarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda qabila, urug' va ular ittifoqining hududiy chegaralangan shevalariga xos dialektal unsurlarning og'zaki ijod janrlari (dostonlar, ertak, qo'shiq, topishmoq, maqollar) vositasida qayta ishlanish muhim omil bo'ladi. Natijada umumxalq tili doirasida mahalliy dialektlardan ustuvor bo'lgan til shakli, ya'ni og'zaki poetik ustdialekt vujudga keladi. U umumxalq tili tizimidagi dastlabki adabiy shakl sifatida yozuv joriy etilgunga qadar amalda bo'lib, keyinchalik yozma tilning taraqqiyotiga asos sifatida xizmat qiladi. Yozuvning kashf etilishi va yozma tilning taraqqiyoti natijasida adabiy tilning amal qilish doirasi yana ham kengayadi, uning me'yoriy asosi qat'iy qoidalar vositasida takomillashib boradi. Og'zaki va yozma til shakllari o'rtasidagi tafovutlarning kamayishiga qulay imkoniyatlar tug'iladi. Bu jarayonni hozirgi o'zbek adabiy tili va boshqa milliy tillar misolida ko'rish mumkin. Zamonaviy adabiy tilning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida umumxalq tilida mavjud bo'lgan dialektal (lahjaviy) farqlar ham kamayib, dialektlarning amal qilish doirasi esa torayib boradi.

1.2. Tillarning qiyosiy-tipologik hamda lingvistik tasnifi.

Dunyodagi tillarning ko'pchiligi tarixan bir umumiy ildizga ega bo'lib, ular fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarining yaqinligi, o'xshashligiga ko'ra muayyan guruhlariga ajratiladi. Tarixan bir umumiy ildizga ega bo'lgan tillar qarindosh tillar hisoblanib, ular til oilasini tashkil etadi. Tillarning bunday guruhlanishi geneologik (qarindosh) tasnif hisoblanadi. Jumladan, geneologik tasnifga ko'ra yer yuzida (hind-yevropa tillari, Semit tillari, xamit tillari, fin-ugor tillari, oltoy tillari va boshqalar) yigirmaga yaqin til oilasi mavjud bo'lib, ularning har biri, o'z navbatida, bir necha til turkumlariga bo'linadi. Masalan, dunyodagi eng yirik til oilalaridan biri bo'lgan hind-yevropa oilasi 12ta til turkumini o'z ichiga oladi. O'z navbatida, bu turkumlarning har biri bir nechta milliy tillardan tashkil topadi. Masalan, german turkumiga dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy kabi milliy tillar kirsa, roman turkumiga esa fransuz, italyan, ispan, portugal, rumin, moldavan kabi milliy tillar mansubdir. Bunday turkumlarini tashkil etadigan tillarning ba'zilari o'lik til bo'lishi ham mumkin. Masalan, lotin tili roman turkumiga mansub bo'lgan o'lik tildir.

Shunday qilib, muayyan turkumga mansub bo'lgan tillar geneologik (qarindoshlik) jihatdan bitta asos tildan tarqalgan. Ma'lum bir milliy tillarning shakllanishida asos bo'lib, o'zi nutqiy aloqa vositasi sifatida ishlatilmaydigan til **bobo til** yoki **asos til** deyiladi. Masalan, qadimgi roman va german tillar turkumi hozirgi ingliz, fransuz va nemis kabi milliy tillar uchun bobo til hisoblansa, hozirgi barcha turkiy milliy tillar uchun qadimgi turkiy til bobo tildir.

Bundan tashqari, tillar iste'molda bo'lish tarixiga ko'ra tirik va o'lik tillarga bo'linadi. Ma'lum bir xalqning muomalada bo'lib turgan tili **tirik til** deyiladi. Masalan, hozirgi o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozor, turk, qaraqalpoq, tatar kabi tillar tirik tillardir. Bizgacha yozma manbalar orqali yetib kelgan, ammo ma'lum bir xalq tomonidan hozir nutqiy aloqa almashuvida faol ishlatilmaydigan til **o'lik**

til deyiladi. Masalan, lotin tili, sanskrit (qadimgi hind) tili, qadimgi xorazm tili, qadimgi slaviyan tili va qadimgi turkiy tillar o'lik tillardir. O'lik tillarning paydo bo'lishida , asosan , qabila va urug'larning millat sifatida shakllana boshlashi hamda mustaqil milliy tillarning vujudga kelishi va taraqqiyoti asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Ko'pchilik xalqlarda bu jarayon eramizning XI asrida yuz bergan. Masalan, qadimgi turkiy qabila-urug'larning millatlarga, birlashishi ham shu davrga to'g'ri keladi.

Tillarning tarixan qarindoshligi, umumiy va noo'xshash bo'lib qolgan xususiyatlari qiyosiy-tarixiy tahlil usuli asosida aniqlanadi. Masalan: fors-tojik, rus, ingliz, nemis, fransuz tillaridagi *modar, mat, mather, mutter, mere* so'zlarini hind-yevropa oilasidagi eng qadimgi lotin va sanskrit tillaridagi *mater\ mata* so'zlari bilan qiyoslanishi mazkur tillarning qarindoshligidan dalolat beradi. Tillarning qiyosiy-tarixiy tahlil usuli tilshunoslikda ***komparativistika*** (lot. *comparativus*-qiyosiy) atamasi bilan ham yuritiladi.

Tipologik tasnifga ko'ra tillar to'rt guruhga bo'linadi:1) amorf tillar, 2) aggletinativ tillar, 3) flektiv tillar, 4) polisintetik tillar.

1.Amorf tillarda so'zlar gapda bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri birikib keladi, so'zlar orasidagi sintaktik munosabat so'z tartibi, urg'u, yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan tillarga xitoy, tibit, birma tillarini kiritish mumkin. Amorf tillarning yana bir xususiyati shundaki, ularda aynan bir so'z matnda har xil ma'noda va vazifada kelaveradi. Masalan, xitoycha *ige yuedi syusi-oylik dam olish* birikmasidagi *syusi* so'zi aslida *dam olish, istirohat qilish* ma'nosidagi fe'l bo'lib, birikmada ot ma'nosida kelgan. Mazkur so'z boshqa bir o'rinda, ya'ni *bir oz dam olish kerak* ma'nosidagi *ya o syusi isya* birikmada harakat bildiruvchi fe'l vazifasida ishlatilgan.

2.Aggletinativ tillarda har bir grammatik ma'no, odatda, alohida affiks bilan ifoda etiladi. Masalan, o'zbek va boshqa turkiy tillarda ko'plik, egalik, kelishik ma'nolarining alohida affikslar yordamida ifodalanishi (talaba-lar-imiz-dan) shular

jumlasidandir. Aggletinativ tillarga oltoy oilasiga kiruvchi tillar hamda fin-ugor tillari, iberiy-kavkaz va dravid tillari kiradi.

3.Fliktiv tillarda bidan ortiq grammatik ma'no, odatda, birgina ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi *Эти книги сдают в библиотеку* gapida *эти книги* so'zlari oxiridagi *у* qo'shimchasi ikki xil grammatik ma'noni, ya'ni tushum kelishigi va ko'plik ma'nolarini ifodalab kelgan. Shuningdek, *сдают* so'zi oxiridagi **-ю** qo'shimchasi mayl, zamon va shaxs-son ma'nolarini ifoda etish uchun xizmat qilgan.

4.Polisintetik tillarda butun bir gap bitta so'z shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. Masalan, chukot tilida *Ты-ата-каа-нты-ркын* – shaklidagi birikma o'zbek tilidagi *Men semiz bug'ularni o'ldirayapman* gapiga tengdir. Polisintetik tillarda qisqalik, ixchamlik yetakchilik qiladi.

II Bob

Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalari va ularni yasash usullari va vositalari

2.1. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining turlari

Gap nutqning eng kichik, minimal bo'lagidir. So'z, so'z bi-rikmalari, grammatik formalar, so'z tartibi va intonatsiya gap strukturasi ajralmas qismidir. Nutq prosessida so'zlar shu tilga xos bo'lgan grammatik xusu-siyatlar asosida bir-biri bilan boqlanadi. So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'no ifodalovchi so'zlardan tuzilgan, ham grammatik, ham semantik butunlikka ega bo'lgan birlikdir. Masalan: The two men walked in silence (A. Cronin) gapida quyidagi so'z birikmalari bor: 1) the two men, 2) walked in silence.

Bir so'z birikmasi gapda turli o'rinda kela oladi:

1. The two men walked in silence:
2. We have seen the two men walking in silence.

Ko'makchi so'zlar mustaqil so'z bilan birgalikda bir element sanaladi. Predlog + ot tipidagi qo'shilmalar, masalan, in the evening, at night, in time, for a while kabilar So'z birikmasi sanalmaydi: as soon as, down to, in front of, on behalf of, in order, in accordance with va shu kabi konstruktsiyalar ham so'z birikmasi qisoblanmaydi, chunki ular gapda predlog va boglovchilar vazifasida keladi.

So'z birikmalari erkin va turqun bo'lishi mumkin.

Erkin so'z birikmasida so'zlarning birikishi erkin bo'ladi.

Erkin so'z birikmalarining ma'nosi komponentlarning ma'nosi-ga teng bo'lib, komponentlar o'rtasida hokim-tobelik mavjud bo'ladn.

Turqun so'z birikmasining ma'nosi bir so'zga tenglashib, uil³ hokim-tobelik bo'lmaydi. Turqun so'z birikmasi frazeologiyada o'r-ganiladp.

Turqun so'z birikmasiga misol:

to take a fancy - qiziqib ko'rmoq

to put up with - chidamoq !

*out of the blue - tomdan tarasha tushgandek

So'z birikmasi bilan gap o'rtasida farq kattadir. So'z birikmasi nominatsiya (atash) funksiyasini bajarishi jihatdan so'zga yaqin turadi va u gap singari intonatsion tugallikka ega bo'lmaganligi uchun kommunikativ birlikni tashkil qilmaydi.

So'z birikmasining turlari (Types of Phrases). Soz birikmasi strukturasi bir so'z q o k i m (head), qolgani t o b e (subordinate) bo'ladi. Odatda sifat bilan ot birikmada sifat tobe, ot hokim; ravish bilan fe'l birikmada fe'l hokim, ravish tobe bo'ladi: a powerful man, a grey suit, Red Square, curly hair, enormous eyes, little regular features, neatly dressed, play well; said smilingly, beamed with pleasure.

hokim so'z fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, fe'li so'z uquic-ma, ot bilan ifodalangan bo'lsa, o'tli so'z birikma, olmosh bilgan ifodalangan bo'lsa, olmoshli so'z birikma, ravish bilan ifodalash:-g;sh bo'lsa, ravishli so'z birikma, son bilan ifodalangan bo'lsa, spnli so'z birikma deb yuritiladi.

hozirgi zamon ingliz tilida ot -f ot tuzilishidagi so'z birikmasi ko'p uchraydi. Ot - (- ot so'z birikmasi ham o'z iavbatida bpr necha ko'rinishga ega:

1) bosh kelishikdagi ot + ot stone wall, uncle Tom

2) haratqich kelishikdagi ot + ot Rahim's book,- Tom's sister

OT + OT so'z birikmasi ko'p qollarda predlog bilan ham ke-ladi:

Ot + of + ot a drop of rain, the edge of the shelf.

OT + with + OT

Aniqlovchining otdan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra so'z birikmasi bir necha turlarga bo'linadi. Bunday holat variantlari deyilib, u so'z birikmasining ichidan kengayishi natijasida sodir bo'ladi.

So'z birikmalariing ko'p uchraydigan turi sifat+ot birikmasi ham taalluqlidir: Big Ben, white hair, an old man, stage hunter.

Mazkur soʻz birikmasining sifat + predlog + ot turi ham mavjud. Masalan: afraid of work. Bu turdagi soʻz birikmasida ikkita sifat ketma-ket kelishi mumkin. Sifat + sifat + ot soʻz birikmasi ham koʻp qoʻllanadi. Masalan: new high buildings. Soʻz birikmasining boshqa turlari ham mavjud:

Gapning bosh (ega, kesim) va ikkinchi darajali (aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) boʻlaklari boʻladi. Ega va kesimning oʻzidagina iborat boʻlgan gap sodda yigʻiq gap deyiladi, masalan: Kuz keldi. Oʻquvchilar qatnashdilar kabi.

Gapda ega va kesimdan tashqari ikkinchi darajali boʻlaklar ham boʻlsa, bunday gap sodda yoyiq gap deb ataladi, masalan: Oʻbekistonga kuz keldi.

Ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tuzilib, murakkab fikrni bildirgan gap qoʻshma gap deyiladi.

Gapda soʻzlar bir-biri bilan bogʻlangan boʻladi. Gapdagi soʻzlar ikki xil yoʻl bilan boqlanadi: teng boqlanish va ergash bogʻlanish.

Teng huquqli soʻzlarning bogʻlovchi yordami bilan yoki bogʻlovchisiz oʻzaro birikishi teng bogʻlanish deyiladi, masalan: daryo va dengiz, kuzat va tingla kabi birikmalarda soʻzlar teng huquqli, chunki ular boshqa soʻzlarga nisbatan bir xil munosabatda boʻladi.

Soʻzlarning biri ikkinchisiga tobe boʻlib, uni aniqlab, toʻldirib, izohlab kelishi ergash bogʻlanish deyiladi. Aniqlanadigan soʻz bosh soʻz (ergashtiruvchi soʻz), aniqlaydigan soʻz esa ergash soʻz (ergashuvchi soʻz) deyiladi. Soʻzlarning oʻzaro ergash bogʻlanishi uch turli boʻladi: moslashuv, boshharuv va bitishuv.

Bir soʻzning ikkinchi soʻzga ergashib, u bilan rod, son, kelishik yoki shaxs jihatdan moslashib bogʻlanishi moslashuv deb ataladi.

Bir soʻzning boshqa soʻz talabiga koʻra maʼlum (old koʻmakchili yoki old koʻmakchisiz) vositali kelishikda turishi boshharuv deyiladi.

Bir soʻzning ikkinchisi bilan moslashmay, boshharilmay, faqat maʼno jihatidan bogʻlanishi bitishuv deyiladi.

Morfonologik analiz tilning leksik yarusini tekshirishda ham katta roʻl oʻynaydi. Chunonchi, leksema va uning variantlarini hamda allolekslarini bir-

biridan farq qilishda morfologik printsiptga tayaniladi. Masalan: shahar - shaharmi - shaharimiz shahar - shahrim – shahrimiz.

Shahar leksemasi ikki alloleksdan iborat: Shah -ar .

Sintaktik paradigmatika nuqtai nazaridan shahar so'zining ikki xil birikmada kelishini solishtirib ko'ramiz.

Masalan: bu katta shaharda - bu shahri azimda va boshqalar.

Sintaksis (syntax) yunoncha (syntaxis) tuzish so'zidan olingan bo'lib, so'z. birikmalari va gaplarning yasash usullarini, sintaktik formalar birliklaridan anglashilgan ma'nolarni o'rganadi. Sintaksisda asosiy birlik so'z birikmasi va gap bo'lib, ular sintaksisning o'rganish ob'ekti hamdir.

So'z turkumlari va so'z formalari faqat so'z birikmalarida va gaplarda shakllanishi mumkin. Sintaktik konstruktsiyalar esa o'z navbatida so'z turkumlari va ularning formalaridan tashkil topadi. Bu jihatdan morfologiya va sintaksis o'zaro bog'liqdir. Sintaksis morfologiyani o'zining ishtirokchisi sifatida o'z ichiga oladi.

Hozirgi ingliz tilida sintaksisning ko'p turlari bo'lib, ulardan eng asosiylari quyidagilardir:

- 1) aktual sintaksis (actual syntax),
- 2) katta sintaksis (major syntax),
- 3) kichik sintaksis (minor syntax),
- 4) grammatik sintaksis (grammatic syntax),
- 5) stilistik sintaksis (stylistic syntax) va boshqalar.

Morfologiya singari sintaksisning ham ikki yarusi, ya'ni so'z birikmasi yarusi (phrase level) va gap yarusi (sentence level) bo'lib, har qaysi yarusning o'z tekshirish ob'ekti va vazifalari bor. Undan tashqari, so'z birikmalari va gapni o'rganishda sintaksis turli xil analiz metodlaridan foydalanadi. Sintaksisda gapning to'rt xil modeli o'rganiladi:

- a) Gap bo'laklari modeli,
- b) Frizning distributiv modeli,
- v) Bevosita ishtirokchilarga ajratish modeli,

g) Xomskiyning gapsformatsion modeli.

Morfologiya va fonologiya fanlarini o'z ichiga olgan sintaksis til ierarxiasining eng yuqori yarusi hisoblanganligi sababli u kateqorematik yarus deb ataladi. Masalan, o'zbek va ingliz tillaridagi Men kechagi kunning gazetasini olmadim. I haven't got yesterday's newspaper gapi sintaktik tugallangan bo'lib, morfologik va fonetik birliklarning qo'shilishida yasalgan.

Sintaksis sintaktik birliklarni o'rganadi. Sintaktik birliklarga gap, so'z birikmasi va sintagmalar kiradi. Bularning har biri sintaksisning eng katta va mustaqil bo'lagi hisoblanadi. Masalan, gapning tilshunoslikda 300 ga yaqin ta'rifi borligiga haramay, meloddan avvalgi ikkinchi asrda yashagan Dionisiy Frakiyskiyning, gap to'la yoki tugal fikr anglatuvchi birikma yoki konstruksiyadir degan ta'rifi hozirgacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Sintaksis so'zlarning o'zaro sintak aloqasini yoki munosabatini o'rganadi. Bu aloqalar o'z xarakteriga ko'ra quyidagi uch guruqqa: subordinativ, koordinativ va predikativga bo'linadi.

Sintaktik munosabat substitutsiya vositasida tekshirib ko'tsiladi.

Subordinativ (subordinatsiya) munosabatida bo'lgan birikmada bu birikmaning funktsiyasi bevosita ishtirokchilardan bittasining funktsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni asosiy (head) konstituent butun grupp (birikma) o'rinda kela oladi. Ikkinchi bevosita ishtirokchi adyunk (adjunct) deb atalib, uning ma'nosi butun grupp ma'nosiga mos kelmaydi.

Subordinativ munosabat asosida yasalgan birikmalar sub-ordinativ yoki modifikatsion birikmalar deyiladi. Bu birikmalarning ishtirokchilaridan biri ikkinchisini aniqlab keladi. Ular kamida ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi aniqlovchi (modifier) yoki qo'shilib keluvchi qism (adjunct), ikkinchisi aniqlanuvchi yoki asosiy (head) qism hisoblanadi. Masalan:

Inglizcha:

Red pencil, sweet apple, clever man

O'zbekcha:

Qizil Qalam, shirin olma, aqlli odam

Bu birikmalar O. Espersen termini bilan aytganda o'zaro funktsional (functional) munosabatdadir, ya'ni ularning bevosita ishtirokchilari o'rtasida predikativ aloqa yo'q. quyidagi misolda tekshirish substitutsiyasini (substitution test) ishlatib ko'ramiz:

Inglizcha: A clever man spoke - A man spoke.

Uzbekcha: Qiziq kitob o'qidim - kitob o'qidim.

Subordinativ munosabatdagi gruppada fe'llar o'timli bo'l-sa, biz u birikmalarni ob'ektli yoki komplementativ birikma deb ataymiz. Ob'ektli yoki komplementativ birikma deganda kesim va to'ldiruvchidan iborat bo'lgan birikma tushuniladi:

Inglizcha:

to buy books, to eat apples, to grow cotton

o'zbekcha:

qo'shiq q aytmoq, kitob o'qimoq, shaxmat o'ynamoq

Hozirgi ingliz tilida to'ldiruvchi ma'nosidagi ob'ekt (object) o'rniga ko'proq komplement (complement) so'zi ishlatilayotganligi sababli bu birikmalar komplementli birikmalar deb ham yuritiladi.

Koordinativ (koordinatsiya coordination) munosabatidagi birikmada birikma funktsiyasi har bir ishtirokchining funktsiyasiga mos keladi. Koordinativ birikma ikkita teng ishtirokchidan tashkil topadi:

inglizcha:

boys and girls, come and see, black and white

o'zbekcha:

kun va tun, yaxshi va yomon

Koordinativ birikmalar ishtirokida tuzilgan gaplar ikkita mustaqil gapning tgapsformatsion birikuvidan iboratdir. Masalan: Boys and girls came:

Boys and girls came.

Kunlar va tunlar o'tdi gapi quyidagi gaplardan tashkil topgan:

Kunlar o'tdi! Tunlar o'tdi`

Kunlar o'tdi va tunlar o'tdi

Kunlar va tunlar o'tdi.

Predikativ (predikatsiya predication) munosabatidagi birikmaning umumiy funksiyasi har qaysi bevosita ishtirokchi anglatgan ma'nodan farq qiladi.

Predikativli birikmalardagi ishtirokchilar ega va kesimdan iborat bo'lib, ulardan gap tuziladi.

inglizcha:

Students came. We sang.

o'zbekcha:

Kun chiqdi. Paxta ochildi.

Predikativ munosabatdagi birikmalar leksusli aloqada bo'ladi. Demak, morfologiya mavhumlashgan formal belgilar bilan til sistemasini tahlil qiladi, sintaksis esa ma'lum modelga solingan konstruktsiya va gaplarni o'rganadi. So'zlar va so'z formalari, konstruktsiyalar va gaplar soni behisob bo'lsada, ular ma'lum modellar asosida ishlatiladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, har qanday grammatik to'g'ri model (konstruktsiya yoki konfiguratsiya, gap va boshqalar) ham tilda semantik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun har bir grammatik birlik ham semantik, ham grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

Kontekst yoki gapda tilning turli birliklari, masalan: fonema, morfema, so'z, so'z birikmalari, gap va boshqalar ishtirok etadi. Ular bir-biri bilan paradigmatic va sintagmatic aloqada bo'ladi.

Sintagmatic va paradigmatic aloqa ilmiy adabiyotda sintagmatika va paradigmatica deb qo'llaniladi.

Bu termin grammatik ma'no va grammatik formani o'rganishdagi tilning uzluksizligi (linearity) va sistemaliligini aks ettiradi. Paradigma deganda so'zlarning morfologik formalari majmui, morfemik variantlar sistemasi tushuniladi.

Paradigmatica s o' z . f o r m a l a r i n i n g paradigmatic birligi bo'lib, til birliklari sistemasini harama-harshi qo'yish jarayonidir.

Paradigmatik aloqa paradigmaga kiruvchi soʻz formalari asosida ifodalanadi. Soʻz formalarini modellashtirish texnikasi paradigma vositasida amalga oshiriladi. Soʻzlarning kategorial formalarini paradigmatik modellar asosida oʻzgaradi. Morfologik affiksli soʻz turkumlarining, yaʼni otlar, sifatlar, feʼllarning maxsus paradigmalari bor. Masalan, ingliz tilidagi ikki xil soʻz turkumiga mansub soʻzni olib koʻraylik.

man ride

men rides

man's rode

men's ridden, riding

Yuqoridagi misolda otlarning toʻrtta va feʼllarning esa beshta paradigmatik formasi borligi koʻrinib turibdi.

Har bir paradigmaning oʻz sistemasi bor. Otlar paradigmasi feʼllar paradigmasidan farq qiladi. Ot va feʼllar paradigmasi maxsus affikslarni soʻz negiziga qoʻshish bilan yasaladi.

Grammatika paradigmatik formalarni abstraktlashtiradi. Ularda soʻz negizlariga qoʻshiladigan fleksiylar, yaʼni morfemalar shartli belgilar bilan koʻrsatiladi, masalan,

Otlarda

koʻplik morfemasi,

egalik kelishigi morfemasi.

Feʼllarda

uchinchi shaxs birligidagi hozirgi zamon morfemasi, oʻtgan zamon formasini yasovchi morfema, II sifatdash formasini yasovchi morfema, I sifatdash formasini yasovchi morfema va hokazo. Oʻzbek tilida ham soʻzlar paradigmatik gruppalariga boʻlinadi. Ammo oʻzbek tilidagi otlar paradigmasi ingliz tilidagi otlarnikiga qaraganda boshqacharoqdir. Chunki oʻzbek tilida egalik qoʻshimchalari ham, maxsus kategorial morfemalar kabi, otlarda qoʻshimcha paradigma hosil qiladi. Misol uchun egalik qoʻshimchalarisiz va egalik qoʻshimchalarsiz ishtirokida kelgan paradigmalarni koʻrib chiqaylik:

Birinchi va ikkinchi kichik paradigmalarni bir-biri bilan qo'shsak, otlarning to'la paradigmasi vujudga keladi. Ammo m va im; i va si suffikslari bitta egalik morfemasining allomorflari bo'lganligi sababli biz qalam so'zining paradigmasni misol tarzida ko'rib chiqamiz.

- 1) fe`l + ot wrote a letter, is smoking a cigar, valued rest
Buyruq maylidagi fe`l + ot strukturasiidagi birikmalar (masalan, wait a minute) buyruq gapga teng bo'ladi.
- 2) fe`l + ravish spoke louder, gap fast.
- 3) son + ot fifteen Republics, twenty days
- 4) ravish + sifat very happy, profoundly happy, midely famous
- 5) ravish + ravish very well, too young.
- 6) fe`l + predlog + ot to go with (one's) friend, to accept with gratitude.
- 7) sifat + fe`l easy to write, hard to know
- 8) sifat + gerundiy worth seeing
- 9) sifat + predlog + gerundiy famous for painting
- 10) sifat + predlog + sifat far from important

2.2. Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining yasashida mustaqil so'zlarning roli

So'z birikmasining yasashida mustaqil so'zlar qancha ko'p ishtirok etsa, uning turlari ham shuncha ko'p bo'ladi.

So'z birikmasi komponentlari orasidagi sintaktik munosabatlar (Syntactical Relations between the Components of a Phrase). So'z birikmasining komponentlari bir-biribidan so'z formalari, yordamchi so'zlar, intonatsiya, so'z tartibi yordamida birikadi.

So'z birikmasining komponentlari biri ikkinchisiga tobelanish yo'li orqali birikadi. So'z birikmasi komponentlari o'rtasidagi hokim-tobelik quyidagi yo'llar bilan ifodalanadi:

Moslashuv (Agreement). Moslashuvda tobe so'z (subordinate word) hokim so'zga (head word) mos formada kelishi kerek.

Ingliz tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan moslashmaydi. Ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan aniqlovchi bu qoidadan-mustasnodir.

this book , that book, these books, those books

Ega bilan kesimning moslashuvi so'z birikmasida emas, gapda o'rganiladi. Boshqaruv (Government). Boshqaruvda hokim so'z qanday formada bo'lmasin, u tobe so'zni ma'lum formada kelishini talab qiladi. Tobe so'zning formasi hokim so'z formasi bilan bir xil bo'lmaydi.

Hozirgi ingliz tilidagi so'z birikmalarida boshqaruvning roli unchalik katta emas. B. A. Il'ishning ko'rsatishicha, faqat ob'ekt (objective case) kelishigida kelgan kishilik olmoshlari va who so'roq olmoshi hokim so'z - fe'l talabiga ko'ra o'z formalari o'zgartirishlari mumkin: give me, him, her, us, them, whom.

Birikuv (Adjoining). Bunday bog'lanishda birikkan so'zlarda birining grammatik ikkilanishi ikkinchisiga bog'liq bo'lmaydi. Ularning o'zaro aloqasi

tartib yoki intonatsiya orqali ifodalanadi. Ingliz tilida bunday bog'lanish keng tarqalgan. Masalan:

a good boy, his book, to read well

ten books, many pens, to read slowly

Gapning eng asosiy belgisi predikativlik (kesimlik)li(Predikativlik - gap strukturasi asosiy markazi hisoblanadi. Gapning muhim belgilaridan yana biri uning intonatsion shakllangan bo'lishidir. Intonatsiyasiz ayrim olingan gap hech qachon haqiqiy gap bo'lolmaydi. Intonatsiyasiz gap, intonatsiya olgan gapdan farq qiladi. Intonatsiya yordamida faqat. So'z birikmalarigina emas, balki ayrim olingan so'z ham gap bo'la olishi mumkin. Masalan; He rubbed his eyes and looked asked "Henry", he said. "Oh, Henry!". What is the matter now asked Henry steeply (J. London). They heard a loud cry. "The wolves", said Henry (J. London).

Gapning xarakterli xususiyatlaridan yana biri modallik. Modallik (modality) - gap mundarijasining voqelikka munosabati, so'zlovchining voq'elikka sub`ektiv munosabatidir.

Gap turlari Types of Sentences

Gap so'zlovchining biror maqsadini anglatadi. So'zlovchi gap orqali darak, xabar beradi, o'ziga noma`lum shaxs, predmet, harakat, belgini aniqlamoqchi bo'ladi, tinglovchini biror ish-harakatni bajarishga undaydi, buyuradi. So'zlovchining maqsadiga ko'ra gaplar uch turga bo'linadi:

1. Darak gaplar (Declarative Sentences)
2. So'roq gaplar (Interrogative Sentences)
3. Buyruq gaplar (Imperative Sentences)

So'zlovchi gap orqali darak, so'roq, buyruqlar bilan birga o'zining emotsional mu nosabatini, qis-tu yqularini ham ifodalaydi. ' , .

Emotsionallikning ifodalanishiga ko'ra gap yana ikkn turga bo'linadi:

1. Emotsional gaplar. 2. Emotsional bo'lmagan gaplar.

Emotsional gaplar, odatda, undov gaplar (Exclamatory Sentences) dea yuritiladi. .

Darak gaplar (Declarative Sentences). Darak gaplar biror nar-sa, qodisa to'q.risida darak, xabar berish, belgini, tasvirni tas-diqlash eki inkor qilish maqsadida tso'llanadi. Darak gaplar struktura jiqatidan sodda va qo'shma bo'ladi. Darak gaplar b o' l i sh l i va b o' l i sh s i z (tasdiq va inkor) gaplarga bo'liadi. Biror qodisa, belgi, tasvirni tyasdiq yo inkor qilishi darak gzplargagina xos xususiyatdir.

Sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, unda gap struk-turasi, tuzilishi, gap bo'laklari, gap turlari, so'zlarning bir-biri bilan boqlanish yo'llari, so'z birikmalari o'rganiladi. Gap qaqidagi ta`limot sintaksisning asosidir. So'z birikmasi gapning qurish material, vositasi bo'lganligi uchun ham sintak-sisda tekshiriladi. Sintaksisda har qanday so'z birikmasi o'rgani-lavermaydi. Ikki va undan ortiq so'zning qo'shilib, qo'shma so'z hosil qilishi leksikologiyaning o'rganish ob`ektidir.

2.3. Til sistemasida soʻz birikmalarining hosil boʻlishi

Til haqidagi fanlar sistemasida soʻz yasalishi nazariyasining oʻrni masalasi uzoq vaqtlardan beri barcha tilshunoslar uchun bahsli munozira manbai boʻlib kelmoqda. Soʻz yasalishi tilshunoslar tomonidan goh morfologiya sohasiga, goh leksikologiya sohasiga kiritilib kelgan.

Tilshunoslikda soʻz yasalishining oʻrni haqida V.V.Vinogradov tomonidan aytilgan fikr ibratlidir. Unga koʻra, soʻz yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya - tilning lugʻat tarkibi haqidagi fan bilan, oʻz oʻrnida grammatika bilan yaqinlashar ekan - shakl yasash taʼlimoti hamda soʻz birikmasi sintaksisi bilan ham bogʻliqdir. Bunday nuqtai nazarni qoʻllab-quvvatlovchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

Hozirgi paytda soʻz yasalishi nazariyasini mustaqil fan sifatida rasmiylashtirish jarayoni bu sohada baʼzi tushunchalarga yangicha yondashish, baʼzi soʻz yasovchi vositalarni uzil-kesil tasdiqlash va ushbu sohaga tegishli tahlil metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Har bir tilda soʻz yasashning usullari va vositalariga etarlicha eʼtibor qaratilsa-da, mazkur masalani qiyosiy oʻrganish nisbatan kam ishlangan. Hatto yaxshi oʻrganilgan tillarda ham soʻz yasovchi vositalar atroflicha oʻz ifodasini topmagan. Bundan tashqari, bu sohada qilingan ishlar turli tadqiqot metodlarini qoʻllash orqali, har xil maqsadni koʻzlagan va oʻrganilayotgan hodisaga turlicha yondashgan holda amalga oshirilganligi maʼlum tillar guruhi uchun tadqiqot natijalarini qiyoslash imkoniyatini qiyinlashtiradi yoki umuman iloji boʻlmaydi. Tipologik tahlil muammolari, asosan, turli tillarning morfologik xususiyatlarini tadqiq etishda vujudga keladi. Til strukturasi boshqa tomonlari bu nuqtai nazardan nisbatan kam oʻrganilgan. Masalan, leksika va semantika sohasida universal hodisalar tadqiqi birinchi bosqichda turibdi. “Konkret leksik tarkibning mavjud boʻlishiga qaramay, bir necha tillar guruhiga xos boʻlgan umumiy leksik-

semantik modellar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kerak. Agar mavjud bo'lsa, ularning qonuniyatlari va xususiyatlariga oidinlik kiritish kerak bo'ladi" (M.M.Маковский, 1969, c.24). Tipologik tadqiqotning asosiy vazifasi - har bir alohida olingan til sistemasi uchun umumiy bo'lgan modellar munosabatini o'rnatishdan iboratdir.

So'z yasashini ko'rib chiqish davomida, bu sohada tillarning tipologik o'xshashligi yaqqol ko'zga tashlanganidek, ularning farqlari ham shunchalik aniq-ravshan ko'rinib turishining guvohi bo'lish mumkin. Bu fikrning tasdig'i sifatida beshta slavyan tillari ustida (V.A.Nikonov 1962, c. 103-116) va uchta german tillari ustida olib borilgan (V.V.Gurevich 1970) tadqiqot natijalarini keltirish mumkin.

Ingliz va rus tillari hind-ovrupa tillariga mansub bo'lganliklari uchun ularning so'z yasashda ko'pgina o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiydir. Ammo shu bilan birga, yuqorida aytilgan tillarning alohida so'z yasovchi vositalar o'rtasidagi munosabatlarning turli xususiyatlarga egaligi, o'ziga xos so'z yasash usullari mavjudligi hamda har bir tilda so'z yasashning u yoki bu usullarining mahsuldorligi darajasi bilan namoyon bo'ladigan individualligi bilan ajralib turadi.

So'z yasashda asosan morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik va leksik-sintaktik usullar mavjud. Hozirgi zamon ingliz va rus tillari leksikasini boyituvchi eng mahsuldor usullardan biri – bu so'z yasashning morfologik usulidir. Bu usul affikslar va so'z qo'shish yordamida hamda affikslarsiz so'z yasash orqali amalga oshiriladi. Affikslarsiz so'z yasashda tovushlar almashinuvi va so'z yasash vositasi sifatida urg'uni ko'chirish orqali amalga oshiriladi. Lekin so'z yasashning bu usuli ko'p tarqalmagan. U ayniqsa fe'llardan va sifatlardan ot yasashda ko'proq kuzatiladi. Masalan: рус. свистеть – свист, звать – зов, глухой-глушь, тихий –тишь; ингл. to lose-loss, to bleed-blood, to live-life, to ob'ject-'object, to pre'sent-'present.

Affikslarsiz so'z yasash usuliga ingliz tilida keng tarqalgan konversiyani, ya'ni berilgan o'zakni so'z o'zgartirishning boshqa paradigmasiga ko'chirish orqali so'z yasash usulini kiritish mumkin. Bunda yangi so'zning sintaktik birikuvi o'zgargani sababli konversiya so'z yasashning morfologik-sintaktik usulini taqozo

etadi. Konversiya yo'li bilan yasalgan so'zlarning ko'pchiligini fe'llar tashkil qiladi: chair - to chair, light - to light, free - to free, wet - to wet, down – to down va hokazo. Yuqorida keltirilgan misollardan fe'llar turli so'z turkumlaridan, ya'ni otlardan, sifatlardan va ravishlardan yasalishi mumkinligi ko'rinib turibdi. Konversiya yordamida boshqa so'z turkumlari, masalan, ot yasalishi mumkin: to run – run, to work – work, native – a native va hokazo. Konversiya hodisasi ingliz tilini rus tilidan ajratib turadigan uning xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan tillarda affiksasiya va so'z qo'shish so'z yasashda eng universal vositalar hisoblanadi. Affiksasiya – bu o'zakka u yoki bu so'z yasovchi vositalarni qo'shish orqali so'z yasashdir. Affikslar yordamida so'z yasashning uch turi mavjud: suffikslar yordamida, prefikslar yordamida va suffiks-prefikslar yordamida.

Prefiksatsiyada suffiksatsiyadek o'zakka qo'shish orqali emas, balki so'z yasashda prefiks butun bir so'zga qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. Prefikslar yordamida bir xil so'z turkumiga taalluqli bo'lgan yangi so'zlar yasaladi: otlardan otlar (ученик-соученик), fe'llardan fe'llar (готовить - приготовить) yasaladi va hokazo.

Agar suffiksatsiya ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zlarni yasashga xos bo'lsa, prefiksatsiya ingliz tilida ham, rus tilida ham fe'llarni yasashda mahsuldor vosita hisoblanadi. Prefiks yordamida yasalgan otlar va sifatlarning soni juda kam.

Semantik belgisiga ko'ra prefikslarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Inkor va qarama-qarshilik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan prefikslar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardan keyin son jihatdan zamon va makon munosabatlarini hamda ish-harakatning takrorlanishini ifodalovchi prefikslar turadi.

Har bir til o'z prefikslariga hamda boshqa tildan o'zlashtirgan prefikslariga ega. Kirib kelgan prefikslarning bir qismi (roman va grek tillariga tegishli bo'lgan) baynalminal xarakterlidir. Shuning uchun ular ham rus tilida, ham ingliz tilida o'z aksini topgan. Bular quyidagi ot yasovchi prefikslarlardir: anti – (anticyclone,

антифашист), ultra – (ultramodern, ультрафиолетовый), а – (anomalous, аморальный), inter – (internationak, интерполяция) va hokazo.

Ingliz tilidagi koʻpgina ot yasovchi prefikslar leksik jihatdan rus tilidagi prefikslarga mos keladi: in-, un-, не – (unpleasant - неприятный), pre- , до- (prehistoric - доисторический), sub-, под- (subdivision - подразделение), past-, после- (postwar - послевоенный), counter-, против- (counterbalance - противовес).

Feʼl prefikslari sistemasi har bir tilda oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida feʼl yasovchi mahsuldor prefikslarga quyidagilarni kiritish mumkin: de- (deform, detune), dis- (dislike, disapprove), un- (unfasten, unfold), mis – (mistrust, misjudge), re- (rewrite, re-elect), up- (uplift, uprising), under – (underline, underrate), over- (overcloud, overdo) va hokazo.

Prefikslar yordamida feʼl yasash nafaqat ingliz tilida mahsuldor boʻlmay, u rus tilida ham mahsuldor hisoblanadi. Ammo rus tilining farqli tomoni shundan iboratki, prefikslar yordamida biror old qoʻshimcha ishlatilmagan feʼldan leksik maʼnosida qoʻshimcha maʼno oʻttenkasi paydo boʻladigan yangi feʼl (koʻpincha bir qator feʼllar) yasash mumkin. Masalan: рус. бежать – вбежать, взбежать, выбежать, добежать, забежать, отбежать, перебежать, побежать, прибежать, пробежать, сбежать, убежать.

Umuman olganda, rus tilida prefiksatsiya soʻz yasash vositasi singari suffiksatsiyadek ingliz tilidan shaklining turli-tumanligi va koʻpligi bilan farq qiladi.

Soʻz yasashning bu turi oʻzak-negizga bir vaqtning oʻzida ham prefiks, ham suffiks qoʻshish orqali yangi soʻz yasaydi. Feʼllardan feʼllar yasaladi, otlardan otlar va boshqa soʻz turkumlari yasaladi (петь-подпевать, работа-безработица, дом-бездомный).

Kuzatishlar soʻz yasashning prefiksatsiya-suffiksatsiya usuli rus tilida mahsuldor ekanligini koʻrsatdi. U ot va sifatlarni yasashda koʻproq ishlatiladi (рус. бесстрашие, безумство, огарок, обноски, переулоч, безводный, заграничный, настольный, надстрочный, приморский).

Ingliz tili soʻz yasash sistemasida prefiksatsiya-suffiksatsiya usuli unchalik koʻp ishlatilmaydi (superannuation, unworthiness, superficial).

Matn statistik tahlili shuni koʻrsatdiki, 100 ta otdan ingliz tilida prefiks va suffiks yordamida yasalgan atigi bitta yoki ikkita ot uchrasa, rus tilida bu koʻrsatgich toʻrt yoki beshtani tashkil etadi, yaʼni rus tilida ikki barobar koʻp uchraydi.

Soʻz qoʻshish – hind-ovrupa tillari uchun umumiy boʻlgan morfologik soʻz yasash tupi boʻlib, unda yangi qoʻshma yoki qisqartma soʻz ikki yoki undan ortiq oʻzak yoki soʻzning qoʻshilishidan yasaladi. Shuni inobatga olish kerakki, qoʻshma soʻzlar ikkita toʻliq negizning qoʻshilishidan yasaladi: водопровод, книготорговля; qisqartma soʻzlar esa toʻliq negizga qisqartirilgan negizning qoʻshilishidan yasaladi: пединститут.

Soʻz qoʻshish orqali soʻz yasash hozirgi zamon ingliz va rus tillarida ot va sifat yasashda anchagina mahsuldir. Hozirgi zamon yozuvchilari badiiy asarlarida qoʻshma, prefiksli va suffiksli otlarning ishlatilish chastotasi hisoblanganda, koʻrib chiqilgan otlarning ingliz tilida qoʻshma soʻzlar 20% ni, rus tilida esa 10% ni tashkil qilishini koʻrsatdi. Shunday qilib, ingliz tilida yasama soʻzlarning ishlatilish chastotasi rus tiliga nisbatan ikki barobar koʻp.

Yasama soʻzlarning strukturalarini qiyoslash taqqoslanayotgan tillarning baʼzi izomorf va allomorf xususiyatlarini yoritishga imkoniyat yaratadi. Yasama soʻz yasashda negizlarni qoʻshish usuli asosiy farqlovchi belgilardan biri hisoblanadi. Rus tilida yasama soʻzlar asosan birlashtiruvchi unlilar yordamida yasaladi:: землекоп, лесостепь, пылесос, серо-зелёный. Birlashtiruvchi unlilar yordamisiz yasalgan yasama soʻzlar kam uchraydi: ночлег, полуавтомат. Ingliz tilida esa bu holat aksincha boʻlib, unga birlashtiruvchi unlilar yordamisiz yasama soʻz yasash koʻproq xosdir, masalan: red-hot, broadcast, blackboard, watch-maker va hokazo.

Yuqorida koʻrib chiqilayotgan tillarda oʻtkazilgan qiyosiy tahlil natijasi ingliz va rus tillarida yasama soʻzlar quyidagi strukturalarga ega ekanliklarini koʻrsatdi:

1) ot negizi + ot negizi: ingl. apple-pie, thunderstorm, ashtray; rus. домохозяйка, судоремонт, железобетон. Bu tipdagi yasama soʻzlarda asosiy maʼnoni ikkinchi unsur bersa, birinchi unsur esa soʻzning aniq tarifini keltiradi.

2) sifat negiz + ot negiz: ingl. green-wood, sweet-heart, quicksand; rus. мелководье, молодожён.

3) feʼl negiz+ot negiz yoki aksincha: ingl. break-stone, cut-glass, floor-polisher, brick-layer; rus. вертихвост, сорвиголова, полотёр, пылесос.

4) olmosh negiz+ot negiz: ingl. self-assurance, he-dog; rus. самокритика, себестоимость;

5) son negiz+ot negiz: ingl. hundred weight, threelane; rus. треугольник;

6) ravish negiz+feʼl negiz: ingl. out-break, off-set, upkeep; rus. скороход, тяжеловоз.

Yuqorida sanab oʻtilgan struktur tiplaridan tashqari ingliz tiliga birinchi unsuri sifatdosh yoki gerundiy boʻlgan yasama soʻzlar xosdir: reading-hall, dining-room, dancing-girl, walking-stick.

Shunday qilib, ingliz va rus tillarida yasama soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularda birinchi unsur har qanday soʻz turkumi bilan, ikkinchi unsur esa koʻp holatlarda ot bilan ifodalananishi mumkin ekanligini koʻrishimiz.

Ingliz va rus tillarida yasama sifatlar strukturalari quyidagicha namoyon boʻlishi mumkin:

1) sifat negizi+ sifat negizi: ingl. white-hot, blue-black, red-ripe; rus. бледно-зелёный, белоснежный;

2) sifat negizi+ot negizi sifat yasovchi suffiks bilan: ingl. cold-blooded, light-hearted, sweet-tempered; rus. синеглазый, тяжеловесный, круглолицый;

3) olmosh negizi+ot negizi: ingl. five – year, three – act, two-shift; rus. пятилетний, трёхкратный, двухсменный;

4) ot negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. light-tight, blood-thirsty, peace-loving, power-drunk; rus. светонепроницающий, кровожадный, миролюбивый, болеутоляющий.

Aytib o'tish joizki, ingliz tilida ot va sifatdosh II birikmasi rus tiliga qaraganda anchagina mahsuldor hisoblanadi. Bu kabi yasama so'zlarning soni ingliz fan-taxnika va ijtimoiy-siyosiy adabiyotida oshib bormoqda.

5) ravish negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. well-bred, ill-tempered, fast-setting; rus. многословный, здравомыслящий, слабодействующийж

6) olmosh negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. self-acting, all-absorbing; rus. всеобщий, самодовольный.

Shunday qilib, ingliz va rus tillari yasama sifatlari struktur tiplarining o'xshash ekanligini xulosa qilish mumkin. Taqqoslanayotgan tillarda qolgan so'z turkumlari uchun so'z yasash unchalik xos bo'lmagani uchun ularda so'z yasash usullari ko'rib chiqilmadi.

Ingliz va rus tillarida mahsuldor so'z yasovchi vositalarning qiyosiy tahlili taqqoslanayotgan tillar anchagina tipologik o'xshash xususiaytlarga ega ekanliklarini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda, ushbu tillarning o'ziga xos xususiyatlari, so'z yasovchi vositalari mahsuldorligidagi ba'zi farqlar, yasalgan so'zlarning tuzilishi jihatidan farqlari, so'z yasovchi vositalarning son jihatdan farqlari haqida gapirib o'tish o'rinlidir. Ammo ingliz tilini rus tiliga qarama-qarshi qilib qo'yadigan farqli belgilarning ko'pligiga qaramasdan tipologik o'xshash xususiyatlarning mavjudligi ushbu tillarning so'z yasash sohasida qandaydir yaqinlik borligidan dalolat beradi.

III Bob

So'z birikmalari hosil bo'lishida grammatik shakl va uning turlari.

3.1. Sintaktik birliklarni bog'lovchi kategoriyalar va ularning ahamiyatlari

Grammatika (grek. gramma) «harf o'qish va yozish san'ati», atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'rganadigan tilshunoslik bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Birinchi ma'nosi ob'ektni, ikkinchi ma'nosi esa tilshunoslik bo'limini bildiradi.

Grammatika tilshunoslik bo'limi sifatida so'z shakllari va kategoriyalari, so'zlarni leksik-grammatik guruhlarga (LGG larga) tasniflash tamoyillari, gap va uning kategoriyalari, gapning tu'zilish turlari kabi masalalarni o'rganadi. Ko'rinadiki, grammatika til tuzilishining ikki sathi - morfologik va sintaktik sathini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham u tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Morfologiya bo'limida so'z shakllari va kategoriyalari, so'z shakllarini tasniflash tamoyillari haqida, sintaksisda esa so'z shakllarinnng gap tarkibida o'zaro birikish yo'llari, gap va uning kategoriyalari, gapning tuzilish tiplari haqida bahs yuritiladi.

So'z shakllarida morfologik va sintaktik ma'nolarning uyg'unligi ko'rinadi.

Morfologiya grek. morfos «shakl», logos «ta'limot» so'zlaridan olingan bo'lib, so'z shakllari hadidagi ta'limotdir. Demak, morfologiyada so'z shakli tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi.

So'z atamasi tilning leksik sathiga mansub bo'lgan birlik uchun ham, morfologik sath birligi uchun ham qo'llaniladi. Leksik sath birligiga nisbatan qo'llanilganda leksemaga, morfologik sath birligiga nisbatan qo'llanilganda esa so'z shakliga teng keladi.

So'zning grammatik ma'no ifodalovchi vositalarisiz qismi leksema sanaladi. Boshqacha aytganda, har qanday so'z o'zgarish paradigmasida paradigma a'zolari uchun umumiy bo'lgan qism leksema sanaladi. Agglyutinativ tillarda leksema, asosan so'zning

asos qismiga teng keladi. Masalan, ishining, ishni, ishga, ishdan, ishda soʻz shakllari uchun umumiy boʻlgan qism ‘ish’ leksemaga teng keladi.

Soʻzning grammatik maʼno ifodalovchi grammatik morfemalar sistemasi grammatik paradigma hisoblanadi.

Masalan, kitobim, kitobing, kitobi
otlarning egalik paradigmasi sanaladi.

Paradigmaning muayyan bir aʼzosi soʻz shakli hisoblanadi.

Paradigma aʼzolari oʻz ichida oʻzaro zidlik munosabatida boʻladi. Ana shu munosabat u yoki bu paradigma aʼzosini toʻgʻri tavsiflash va uning sistemadagi qiymatini toʻgʻri belgilash imkonini beradi. Masalan, qalam soʻzining birlik shaklda ekanligini otlarning son paradigmasidagi qalamlar shakliga qarab belgilaymiz. Yoki shu soʻzning bosh kelishikda ekanligini otlarning kelishik paradigmasidagi qalamning, qalamni kabi shakllarga qarab anglaymiz. Bundan koʻrinadiki, har bir paradigma asosini oʻzi tashkil etgan aʼzolari oʻrtasidagi zidlanishlar tashkil etadi. Zidlanishlar paradigma aʼzolarining yashash va rivojlanish asosidir.

Har bir zidlanishda umumiylik-xususiylilik dialektikasi namoyon boʻladi. Zidlanuvchi aʼzolar birlashtiruvchi va farqlovchi semalar majmuasidan iborat boʻladi. Birlashtiruvchi sema zidlanuvchi aʼzolarini maʼlum sinfga birlashtirish uchun xizmat qilsa, farqlovchi semalar maʼlum sinf tarkibidagi aʼzolarining oʻzaro farqlanishini, oʻziga xosligini bildiradi. Masalan, qalam, qalamning, qalamni kabi soʻz shakllari kelishik umumiy grammatik semasi (birlashtiruvchi sema) bilan kelishik paradigmasiga mansubligini bildirsa, qalam va qalamning oʻrtasidagi farqlovchi sema (birida nol koʻrsatkichli sema, ikkinchisida qaratqich semasi) ularning oʻziga xos belgilarini ochish uchun xizmat qiladi.

Zidlanish turlari. Har bir morfologik soʻz muayyan shakllar sistemasini — paradigmani hosil qiladi. Masalan, kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda soʻz shakllari kelishik paradigmasini tashkil etadi. Paradigmaning har bir aʼzosi shu soʻzning shakli sanaladi. Demaq soʻz shakl (morfologik soʻz) ikki va undan ortiq morfemaning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan butunlik [M+M] gapga tayyor qolda olib kiriluvchi funktsional birlikdir. Hatto bir morfemadek tuyulgan kitob, qalam kabi soʻzlar

ham morfemik jihatdan ikki morfemadan tashkil topgan butunlik sanaladi: [kitob + M] M qismi - bosh kelishik birlikni ifodalovchi nol shaklidir.

Morfologik soʻz morfemalarning sintagmatik munosabatidan tashkil topar ekan, demak, soʻzning qurilish birligi morfema varianti sanaladi. Shuning uchun morfologiyada morfema va uning varianti tushunchasi markaziy oʻrinni egallaydi.

Tilning eng kichik ma'noli birligi morfemadir. Morfema ijtimoiy-ruhiy mohiyat boʻlib, bevosita kuzatishda – nutk jarayonida bir nechta variantlar orqali namoyon boʻladi. Morfemaning nutq tarkibida bir necha koʻrinishlarda namoyon boʻlishi allomorflar yoki morfemaning variantlari sanaladi. Masalan, qishlogʻimizga soʻz shakli hozirgi oʻzbek tili nuqtai nazaridan uch allomorfning (tarixiy jihatdan toʻrt allomorf: qish +logʻ+ imiz + ga) sintagmatik munosabatidan tashkil topgan butunlikdir: qishlogʻ + imiz + ga.

Variantlar namoyon bolish shart-sharoitiga koʻra bir necha turga boʻlinadi:

- 1) kombinator variantlari; 2) pozitsion variantlar;
- 3) fakultativ variantlar. .
- 4) dialektal variantlar

Morfemalar mazmun va vazifasiga koʻra toʻrt turga boʻlinadi: 1) leksik morfemalar; 2) soʻz yasovchi (derivatsion) morfemalar; 3) grammatik ma'no ifodalovchi morfemalar (grammemalar); 4) oraliq morfemalar (undov, mimema, modal morfemalar)

Leksik morfemalar soʻzning borliqdagi narsalarni nomlash vazifasi bilan bogʻlanib turadi. Masalan, qalamni soʻz shaklining qalam qismi shu soʻzning denotativ ma'nosiga va umumiy predmetlik ma'nosiga ishora qiladi.

Leksik morfemalarda leksik ma'no bilan grammatik ma'no uygʻun holda ifodalanadi. Bu vaqtda leksik morfemalarda umumiylik-xususiylik dialektikasi namoyon boʻladi. Grammatik ma'nosi bu leksik morfemaning ma'lum umumiylikka (predmet, harakat, belgi, miqdor va boshq.) mansub ekanligini koʻrsatsa, leksik ma'nosi shu umumiylik tarkibidagi qaysi narsaning nomi ekanligini bildiradi. Masalan, qalam leksik morfemasi predmetlikni bildirish bilan birga, predmetlik sinfiga mansub boʻlgan, qoʻl bilan yozish uchun moʻljallangan oʻquv quroli nomini ham bildiradi.

Morfologiyada morfologik ma'no, morfologik shakl va morfologik kategoriya tushunchalari katta ahamiyatga ega. Ular o'zaro bog'likda bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir.

Grammatik ma'no leksik ma'nodan farqli ravishda borliqdagi narsa va hodisalarning umumlashgan ma'nolarini va ular o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Masalan daraxt so'zi «bo'yodor, tanadan, shoxlanuvchi ko'p yillik o'simlik» leksik ma'nosidan tashqari predmetlik ma'nosiga ham ega. Bunday ma'noga faqat daraxtlargina emas, balki kim yoki nima so'rogi-ga javob bo'luvchi jami jonli - jonsiz narsa va hodisalar ham ega bo'ladi. Ana shu umumiy ma'no ham grammatik ma'no sanaladi. Bu ma'no leksema ma'nosi bilan bevosita aloqador va borliqdagi umumiy narsa va hodisalarning inikosidir. Bu ma'no leksemaning o'zidan bilinib turadi. Shu bilan birgalikda daraxt so'zi bosh kelishiq birlik ma'nosini ham fodalaydi. Bu ma'nolar esa kelishik paradigmasida boshqa kelishiklarga nisbatan va son paradigmasi ko'plikka nisbatan aniqlanadi. Shuning uchun keyingi ma'no munosabatda namoyon bo'ladi va sistema hosil qiluvchi belgi sanaladi.

Grammatik ma'no sistema sifatida morfologik ma'no va sintaktik ma'nolarni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, u bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Shunga muvofiq, ularni morfologik ma'no va sintaktik ma'nolarga bo'lish mumkin bo'ladi.

Morfologiya morfologik ma'nolarni o'rganadi. Grammatik ma'no tildan tashqaridagi predmetlar, hodisalar, xususiyatlarini aks ettiruvchi nosintaktik (referentsional), masalan, miqdor, makon, zamon kabi va gap hamda so'z birikmasi tarkibidagi so'z shakllarining aloqasini bildiruvchi sintaktik ma'nolarga bo'linadi.

Grammatik ma'no muayyan moddiy vositalar yordamida ifodalanadi. Ma'lum grammatik ma'noni ifodalovchi moddiy vositalar grammatik shakl hisoblanadi. Masalan, kelishik shakli. Aslida grammatik shakl deganda ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Shunday ekan, grammatik shakl grammatik kategoriyami tashkil etgan qismlarning bir tomoni — shakliy tomonini ifodalaydi. Demaq grammatik kategoriya grammatik shakllarning munosabatidan tashkil topgan umumiylik desak mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki grammatik kategoriya tarkibiga kirgan har bir qism ham, o'z navbatida, shakl ya mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sanaladi.

Ana shuni hisobga olgan holda, grammatik kategoriya tarkibiy qismlari uchun grammema a.tamasidan foydalanamiz.

Grammema grammatik shakl va grammatik ma'no munosabatidan tashkil topgan grammatik kategoriyaning tarkibiy qismi sanaladi. Bu vaqtda grammatik kategoriya grammemalarga bo'linadi.

Grammemalar farqlanish (dinstktiv) jihatdan kuchli va kuchsiz turlarga bo'linadi. Kuchsiz farqlash xususiyatiga ega bo'lgan grammemalar doimo moddiy ifodalanishi shart emas. Masalan, otlarning son zidligida birlikning moddiy maxsus vosita yordamida ifodalanishi shart emas. Lekin uning birlik shaklda ekanligi ko'plik shaklga zid qo'yish orqali ma'lum bo'ladi.

Kuchli farqlash xususiyatiga ega bo'lgan grammemalar doim moddiy ifodasini topadi.

Grammemalar grammatik shakl va grammatik ma'no munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sanalib, umumiy xususiyatga ega.U bevosita ko'zatihda variantlar orqali namoyon bo'ladi. Grammemalar shakl va mazmun dialektik aloqasini o'ziga mujassam etganligi uchun variantlanish ikki tomonlama ro'y beradi: a) shakliy variantlar; b) mazmuniy variantlar.

Grammatik kategoriyalar sintaktik xoslanish xususiyatiga ega. Ular gap va uning tarkibidagi uzvlarni bog'lash ham; sintaktik birlikni gap qilib shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun bunday grammatik kategoriyalar ikkiga bo'linadi: a) sintaktik birliklarni bog'lash uchun xizmat qiluvchi konnektiv kategoriyalar; b) sintaktik birlikni gap qilib shakllantiruvchi (konstitutiv) kategoriyalar. Birinchisiga egaliq, kelishik kategoriyalari (otlarda), ikkinchisiga zamon, mayl, shaxs-son (fe'llarda) kategoriyalari kiradi.

Sintaktik birliklarni bog'lash uchun xizmat qiluvchi kategoriyalar bog'lash yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) chapga bog'lovchilar; 2) o'ngga bog'lovchilar.

Egalik kategoriyasiga mansub grammemalar o'zi kushilib kelgan birlikning oldidagi birlikka munosabatini ifodalasa, kelishik kategoriyasiga mansub grammemalar o'zi qo'shilib kelgan birlikning o'zidan keyingi birlikka munosabatini ifodalaydi.

3.2. So'z shakli va uning yasalishi

Leksemaning nutqda voqelangan ko'rinishi *so'z shakl* atamasi bilan yuritiladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: so'zning grammatik shakli bir leksemaning nutqdagi har xil tusli o'zgarishlari bo'lib, ular bir sememanining o'zini ifodalab, yo qo'shimcha ma'no ottenkasi bilan farqlanadi yoxud bir leksemaning boshqa leksemaga nutqdagi sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Shu sababli so'z yasovchilardan boshqa qo'shimchalarning barchasi grammatik shakl deb yuritiladi.

Bir leksemaning bir sistemaga kiruvchi grammatik shakllari bir butun holda paradigmani tashkil qiladi. Masalan, *olma, olmaning, olmani, olmaga, olmada, olmadan* so'zshakllan *olma* leksemasining kelishik paradigmasidir. Morfologik paradigma (grammatik shakllar sistemasi) har bir so'z turkumi uchun alohida (son, daraja, nisbat, o'zgalovchi) bo'lishi ham, barcha so'z turkum-lari uchun umumiy bo'lishi ham (kelishik, egalik, kesimlik) mumkin.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki bir necha grammatik ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan *sarguzasht* so'zi bir grammatik ko'rsatkichli (oddiy daraja), *kitoblarni* ikki grammatik ko'rsatkich (tushum kelishigi, ko'plik son) lidir. Shuningdek, tilimizda grammatik shakllarning ba'zilari bir grammatik ma'noni, ba'zilari bir vaqtning o'zida bir necha grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, keltirilgan *sevib* so'zshaklidagi *-ib* ko'rsatkichi holat ma'nosini, *o'qiyman* so'zshaklidagi *-man* shakli esa, ham birinchi shaxs, ham birlik ma'nosini ifodalamoqda.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zshakllaming bir necha tipi mavjud: a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki yopishgan shakl); b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'zlar bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik shakl; v) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifoalangan shakl (sintetik-analitik yoki aralash shak); g) so'zlarnmg takroridan

hosil bo'lgan shakl yoki takroriy shakl). Sintetik shakl affiksning tabiatiga qarab ikki ko'rinishga ega:

a) affiksi moddiy shaklga ega bo'lmagan (nol shaklli) so'zshakl (*Shoir she 'z o'qiydi* gapidagi *shoir* so'zi bosh kelishikda va birlik sonda bo'lib, bu ma'noni ifodalovchi shakl **nol shakl** deyiladi);

b) affiksi moddiy shaklga ega bo'lgan so'zshakl (keltirilgan gapdagi *o'qiydi* so'zshaklining hozirgi-kelasi zamon, III shaxs birlik ma'nolari moddiy shaklli vosita bilan ifodalangan).

She V *o'qidi* birikuvidagi *she'r* so'zi belgisiz tushum kelishigida bo'lib, u nol shakl sifatida qaralmaydi. «O'zbek tilining, boshqa turkiy tillarda bo'lgani kabi, asosiy belgilaridan biri bo'lgan nol shakl masalasi hali etarlicha o'rganilmagan va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.» (H.Ne'matov.)

Analitik so'zshakllar nomustaqil ma'noli (asosan, yordamchi) so'zlar yordamida hosil qilinadi: *maktab uchun, kelajak sari*.

Sintetik-analitik shakl ham affiks, ham yordamchi so'z yoki yordamchi so'z vazifasidagi mustaqil so'zlar bilan hosil qilinadi. Masalan, *o'qib chiqdi, borgan ekan, shaharga tomon* va h. Bunda *chiqdi* so'zi ushbu o'rinda **-ib** affiksi, *tomon* so'zi **-ga** qo'shimchasi yordamida aralash so'zshaklni vujudga keltirgan.

Takroriy shakl ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *baland-baland* (imorat), *qator-qator* (daraxtlar), *kula-kula* kabilar «ko'plik», «takror» ma'nosini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda takror so'zshakllarni ravish sifatida qarashlar ham uchraydi. Biroq bunda takrorlash natijasida yangi so'z emas, balki lug'aviy ma'no saqlangan yangi so'zshakl vujudga kelmoqda. Masalan, *qator-qator* so'zshaklida yangi lug'aviy ma'no emas, balki *qator* so'zining kuchaygan, orttirilgan ifodali ko'rinishi mavjud.

Grammatik ma'no ifodalash usullari. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud: 1. Affiksial vositalar.

2. Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'zlar.

3. So'z tartibi.

4. Takror.

5. Ohang.

6. Sintaktik qoliplar.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi bo'lib, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'nolar ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatlariga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi: *so'z yasovchi affikslar* va *shakl yasovchi affikslar*.

So'z yasovchi affikslar so'zga qo'shilib yangi lug'aviy ma'no hosil qiladi va so'zning grammatik tabiatiga ham ta'sir etadi. Masalan, *ish* so'ziga qo'shilgan *-la* so'z yasovchi qo'shimchasi yangi lug'aviy ma'no vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik ma'no ham hosil qiladi. Qiyoslang: *ish* (gram.ma'no: *predmetlik, ot*) ~ *ishla* (grammatik ma'no: *jarayon, fe'l*). Ko'rinadiki, hosila leksemadagi *jarayon vafe'l* grammatik ma'nolari so'z yasovchi vosita yordamida vujudga kelgan.

So'z yasovchi vositalar orqali har xil grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Masalan, *-kash* yasovchisi hosilasi sifat ham, ot ham bo'ladi (*mehnatkash* - ot, *dilkash* - sifat). Demak, so'z yasovchi vositalar nafaqat yangi so'z hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik ma'nolarni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil so'zlarda lug'aviy ma'noning grammatik ma'no bilan dialektik aloqasini, ularning o'zaro yaxlitlikda mavjudligini ko'rsatadi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar grammatik ma'no ifodalashning affiksial vositalari sirasida eng sermahsulidir.

Ayrim shakl yasovchilar faqat bir turkumga xos grammatik ma'nolarni vujudga keltirsa (tasniflovchi, bir turkumgagina tegishli bo'lgan shakl yasovchilar, masalan, son, daraja, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik), ayrimlari barcha turkumlar uchun birday tegishlidir (masalan, kelishik, kesimlik, egalik).

Affikslar asosan sintetik shakl hosil qiladi va qisman analitik shakllar hosil qilishda yordamchi vositalarga ko'maklashadi.

Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'zlar ham grammatik ma'no ifodalovchi vositalar sirasida muhim o'rin tutadi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar va gaplarda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Ko'makchilar mustaqil so'zlar bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan grammatik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishiklarga o'xshaydi. *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* gapida ko'makchi yordamida «holat» grammatik ma'nosi ifodalangan. *Telefon orqali gaplashdim gapida* «vosita», *Do 'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* gapida «atalganlik» ma'nosi ifodalangan. Bu ma'nolar grammatik ma'noning bir tomoni bo'lib, ikkinchi tomoni oldingi so'zlarni keyingi so'zlarga bog'lash, sintaktik aloqaga kiritishdir.

Bog'lovchilar teng munosabatli sintaktik birliklarni bog'lashdan iborat sintaktik, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi morfologik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olma va anor, o 'qidi lekin yozmadi*.

Ko'makchilarning morfologik ma'no ifodalash imkoniyatlari uning sintaktik imkoniyatlaridan kengroqdir. Chunki ular mustaqil so'zlar va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan ahamiyatlidir.

O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta guruhni tashkil etib, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning yarim bog'lovchi, yarim ko'makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham nomustaqil ma'noga ega. Masalan, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

O'zbek tilida *juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, bir muncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o 'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo'lmoq* kabi 40 dan ortiq **fe'llar** ham keng qo'llaniladi. Harakat tarzi shakllarini hosil qiluvchi ko'makchi fe'llar aslida lug'aviy ma'noli fe'llar bo'lib, ko'makchi fe'lga aylanganda, sof grammatik ma'no ifodalaydi. Harakat tarzi shakllari sintetik-analitik shakllardir. Masalan, *o'qib chiqdi, yoza hoshladi, qo'rqib ketdi* so'zshakllari ravishdosh shakli va ko'makchi fe'ldan tashkil topganligi sababli sintetik-analitik shakl hisoblanadi.

So'z tartibi grammatik ma'no ifodalashning maxsus vositasi bo'lib, tartib o'zgarishi so'z grammatik ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, *Dalalar yam-yashil* birikuvi gap bo'lsa, *yam-yashil dalalar* birikuvi so'z birikmasidir. «gap» va «so'z birikmasi» grammatik ma'noning sintaktik turidir. Grammatik ma'no ifodalashda so'z tartibiga ohang hamrohlik qiladi. Yuqoridagi gap va so'z birikmasida tartib o'zgarishi bilan ularning ohangi ham o'zgarib ketgan (so'z birikmasida tugallanmagan, gapda esa tugallangan ohang mavjud).

Ohang grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasidir. Bu vosita yordamida gapning turlarini, gap bo'laklarini ajratish, farqlash mumkin. *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi. Gulnora singlim keldi* gaplarining birinchisida *Gulnora* va *singlim* so'zlari uyushiq bo'laklar vazifasida, ikkinchi gapda *Gulnora* so'zi undalma, *singlim* so'zi ega, uchinchi *Gulnora* so'zi aniqlovchi, *singlim* so'zi izohlanmish-ega vazifasida kelgan. Gaplarni tashkil etuvchilardagi bunday farqlar so'zlovchining maqsadiga muvofiq tarzda ohang yordamida yuzaga chiqmoqda.

Grammatik shakl va uning turlari. Grammatik ma'no ifodalovchi morfologik ko'rsatkich grammatik shakl deyiladi. Boshqa nofonologik birliklar kabi grammatik shakl uch tomon -shakl, ma'no va vazifaning yaxlit birligidan iborat. Grammatik shaklning moddiy tomoni *grammema* atamasi bilan ham yuntuladi. Grammatik shakllar (resp. *grammatik ko'rsatkich, grammatik shakl, morfologik shakl, morfologik ko'rsatkich, morfologik vosita* atamaları bunda ma'nodosh terminlar sifatida qo'llanadi) tasnifi tilshunoslik, jumladan, o'rta va oliy ta'lim grammatik tizimining muhim tushunchalaridan biri bo'lganligi sababli, hamma dawning dolzarb mavzusi bo'lib kelgan. O'tgan davr mobaynida o'zbek **tili** grammatik ko'rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosalar awal arab, keyinchalik rus tili grammatik me'yorlariga asoslangan holda berib kelindi. O'zbek tilida grammatik ko'rsatkichlarga nisbatan forma hosil qiluvchilar deb qaralib, u lkkiga -/ so'z o'zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchilarga bo'linardi. So'z o'zgartiruvchilar sifatida so'zlarni

bir-biriga bog'lash vazifasini bajaruvchi egalik, kelishik va shaxs-sori qo'shmchalari ajratilsa, shakl hosil qiluvchilarga so'z ma'nosiga biroz ta'sir etadigan, ammo yangi ma'noli so'z hosil qilmaydigan deb ta'riflanadigan ko'rsatkichlar kiritilardi. Diqqat qilinsa, bu qo'shimchalarning biri lug'aviy, ikkinchisi sintaktik vazifa bilan bog'liq.

So'z o'zgartiruvchi va *forma yasovchi* atamalari tilshunosligimizga ichki fleksiyaga asoslangan rus tili grammatik roe'yorlari asosida kirib kelgan bo'lib, o'zbek tilining turkona tabiatini yoritib bermas, tanlangan atama va tushuncha o'rtasida nomuvofiqlik mavjud edi. Aniqrog'i, so'z o'zgartiruvchi, yasovchi sifatida ajratilgan morfologik shakllar o'zbek tilida so'zning shakliga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi va yasash darajasida ta'sir etmaydi. Bu shakllarning biri so'z lug'aviy ma'nosiga biroz ta'sir etishi bilan, ikkinchisi so'zlarga sintaktik imkoniyat (bog'lash, biriktiruvchanlik, muayyan sintaktik **vazifa** berish) bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda o'zbek tilining haqiqiy talqinini berish, o'zbek milliy tilshunosligini yaratish, uni boshqa til me'yorlari asosida qoliplashtirish asoratidan xalos qilish imkoni tug'ildi. Bu imkoniyat, avvalo, morfologik ko'rsatkichlarning asl tasnifini berishda qo'l keldi. Tilshunosligimiz o'zbek tilining turkona agglyutinatив tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatlariga tayangan holda grammatik ko'rsatkichlarning yangicha tasnifini yaratildi. Natijada grammatik shakllarga nisbatan *lug'aviy shakl hosil qiluvchilar* va *sintaktik shakl hosil qiluvchilar* deb nomlangan yangi atama va tushunchalar kirib keldi.

Xo'sh, *lug'aviy shakl* tushunchasi nima va uning an'anaviy *shakl hosil qiluvchi* tushunchasidan farqi nimada?

So'z shakli tushunchasi o'zbek tilshunosligiga XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela boshladi. Bunda Evropa tilshunosligi va o'zbek (sart, chig'atoy) till bo'yicha evropaliklar tomonidan yaratilgan darsliklar turtki bo'ldi. Arab tilshunosligi ichki fleksiyaga ega arab till qoidalari asosida ish tutganligi sabab bu asosda turkiy tillarning agglyutinatив tabiatini to'g'ri baholab bo'lmas, va mavjud darsliklarda so'zning o'zagiga qo'shilib keladigan qo'shimchalar (ular

arab tilidagi yuklamalar - harflarga o'xshash bo'lganligi sababli) *harflar* deb baholanar edi. Buni Mahmud Koshg'ariy, Mirzo Mahdixon tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin.

So'zshakllari va ularning paradigmalariga ajratish o'zbek tilshunosligida E.D.Polivanov asarlari va A.Fitratning «Sarf» va «Nahv» darsliklaridan so'ng ommalasha boshladi. Bu davrda so'z shakli deganda o'zakka qo'shilib, kelgan har qanday qo'shimcha tushunib, *kitoblar* ham, *kitobim* ham, *yozdik* ham, *yozdi* ham so'z shakli deb talqin qilinar edi. O'tgan asrning 40-yillaridan keyin o'zbek tilshunosligiga F.F.Fortunatov asos solgan Moskva lingvistik maktabining/опия *yasash* va *so'z o'zgartirish* atamalan bir-biridan farqlangan holda kirib keldi. Forma yasovchilar deganda yangi so'z hosil qilmaydigan, ma'noni keskin o'zgartir-maydigan, balki har xil ma'noviy bo'yoq beradigan, aniqrog'i, so'zni nutqqa xoslaydigan, moslaydigan qo'shimchalar tushunildi. So'z o'zgartiruvchilar deganda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar tushumlib, forma yasovchilar ham, so'z o'zgartiruvchilar ham faqat bir turkum doirasida bo'lishi ta'kidlandi.

O'zbek tilida morfologik ko'rsatkichlarning yangicha talqini akademgrammatikalardagi ta'riflarga tayanadi, biroq tasniflardagi ayrim chalkashliklarga oydinlik kiritadi.

Ma'lumki, flektiv tillarda *okonchanie* mavjud bo'lib, u so'zning ma'lum bir shakliga qo'shiladi. So'z o'zgartiruvchi sifati da faqat *okonchanie* tanlanadi, undan boshqa qo'shimchalar forma yasovchilar sirasiga kiritiladi. Masalan:

<i>Oni uznali</i>	<i>Ona uznala</i>	v
<i>Oni uznavali</i>	<i>Ona uznavala</i>	

Bu ikki fe'lda —/ o'tgan zamon formasini yasaydi, -/, -a okonchanielari esa bu formalarni son va rodlarda o'z g a r t i r a d i . O'zbek tiliga *okonchanie* xos emas, shungdek, so'zga rus tili uchun me'yoriy bo'lgan va *osnova* deb ataladigan okonchaniesiz qism ham ahamiyatsiz. Shu sababli forma yasalishi va so'z o'zgartirishni ajratishga keskin zarurat yo'q. O'zbek tilida ham o'zakka

qo'shimchalarni so'z yasovchi va so'zning ayrim shakllari . rini yasovchilarga ajratish xosdir. So'zning ayrim shakllarni yasovchilar esa *lug'aviy shakl hosil qiluvchilar* va *sintaktik shakl hosil qiluvchilarga* bo'linadi.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimchalardir. Masalan, *kitob* so'zida birlik ma'nosi ham *{Bu kitob qiziqarli}*, ko'plik ma'nosi ham *(Do'konga kitob keldi)* mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn *kitob* so'zida birlik yoki ko'plik voqelanishini ajratib beradi. Shu so'zga -lar shakli qo'shilishi bilan u *kitob* so'zida birlik ma'nosini ko'plik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiradi, toraytiradi. Lekin bevosita so'zlarni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar, asosan, to'rt yirik so'z turkumi - fe'l (nisbat, bo'lishh-bo'hshsizlik, o'zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot_(son, kichraytinsh-erkalash), si fat (daraja) va sonda (uning ma'no tunni hosil qiluvchilar) mavjud bo'lib, ularning qo'llanishini o'zi mansub so'z turkumi bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi, ya'ni so'zlarni tasniflash chog'ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakllar deb yuritiladi.

3.3. Sintaktik shakl hosil qiluvchi birliklar va ularni so'z birikmalari hosil qilishdagi ahamiyati

Sintaktik (aloqa-munosabat) shakl hosil qiluvchilar so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lashga yoki ularga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. An'anaviy ta'riflardagidan farqli ravishda aloqa-munosabat shakllarining qo'llanilishi lug'aviy shakllardek bir so'z turkumi bilan chegaralanmaydi, ya'ni bu shakllar istalgan mustaqil so'zga qo'shilib, uni o'zidan keyingi yoki oldingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi. Kelishik, egalik, kesimlik shakllari shunday grammatik vositalardir.

O'zbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O'zgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida *~ib* ravishdosh shakli *shoshil* so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birgalikda, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriya shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.

Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlari. Grammatik shakllarning tuzilishiga ko'ra turlan bir qarashda ularning sintetik va analitik turlarining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Biroq sintetik shakllarning o'zi sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, *uydagi*, *ko'chadagi* so'zshakllaridagi sintetik grammatik shakl (*-dagi*) murakkab shaklga misoldir (*-da+gi*).

Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sodda shakl bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi. Kelishik, egalik shakllari bunga misoldir. Sintetik shakllarning aynmlari va sintetik-analitik shakllarning barchasi murakkab shakldir.

Shakllarning so'zga qo'shilish tartibi. Affikslarning so'z tarkibidagi tartibi ma'lum qonuniyatlarga ega bo'lib, bu hodisa ularning turi bilan bog'liq: so'z yasovchi, lug'aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchilar so'zdagi o'rni bilan farqlanadi.

Morfemalarning o'rinlashidagi tartib va izchillik ularning ma'no-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq ekan, so'zning lug'aviy ma'nosini hosil qiluvchi affikslar binnchi, lug'aviy ma'noga ta'sir qiluvchi affikslar ikkinchi va lug'aviy ma'noga ta'sir qilmay-digan affikslar uchinchi bo'lib qo'shiladi.

Qo'shimchalarning o'rinlashuvidagi me'yoriy holat ba'zan istisno ko'rinishlar ham kasb etadi (*opa-lar-im - opa-m-lar, ayt-di-ng-lar - ayt - di -lar - ing* kabi). Bu kam uchraydigan hodisa bo'lsa-da, unda grammatik, uslubiy va dialektal asoslar mavjud.

«O'zak+so'z yasovchi affiks+lug'aviy shakl hosil qiluvchilar+cintaktik shakl hosil qiluvchilar» qolipidagi qoida bundagi turlaraing o'zaro munosabati, har bir turning o'z ichidagi morfemalarning tartibi jihatidan bir qancha xususiyatlarga ega. Biz quyida faqat shakl hosil qiluvchilar doirasida fikr yuritamiz.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilarning odatdagi tartibi:

a) otlarda: subuektiv baho+son. Subuektiv baho shakllari ning kam qo'llanadiganlari ko'p qo'llanadiganlaridan awal keladi: umuman, «tirik» affikslar «o'lik» affikslardan keyin keladi (*toychoqcha, taylovcha*);

b) sifatlarda ~roq affiksi **-ish**, *-imtir* affikslaridan, shuningdek, ravishdosh siftdoshlarga qo'shilganda ham ularni hosil qiluvchi affikslardan keyin qo'shiladi (*oqishroq, ko 'kimitirroq, sovinqiraganroq, tortinibroq* kabi);

v) sonlarda: taxmin bildiradigan *-cha* affiksi «dona» rna'nosini ifodalovchi *-ta* (urg'usiz) unsuridan keyin keladi (*o 'ntacha* kabi);

g) olmoshlarda: gumon bildiruvchi -dir (ur-usiz) unsuri (*kimdir, nimadir*), umuman, yuklama xaraktenda bo'lib, hamma turdagi affikslardan keyin qo'shiladi: ***nima-lar-ni-dir...***;

d) fe'llarda: fe'lning daraja affikslan boshqa daraja ko'rsatkichlaridan keyin keladi: *ko 'r-in, ko 'r-il-di, ko 'r-ish^di, yuv- in-tir*, lekin o'zlikdan boshqa nisbatlarning ko'rsatkichlan ortirma nisbat affiksidan keyin qo'shiladi: *tarqa-til-di, yugur-iir-ish-di, tik-tir-ish-di*); fe'lning tarz affikslari va kuchaytiruvchilari (*chayqa, bura, to'zg'i*); bo'lishsizlik affiksi (*urintirma, chayqatma*); zamon affikslari; shart mayli affiksi va buyruq maylining kuchaytiruvchilari (*bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil*), fe'lning o'zgalovchi shaklini hosil qiluvchi affikslar (*bormoq, borgan, borib* va boshqalar).

Sintaktik shakllarning tartibi:

a) nokesimlik shakllari: egalik affiksi+kelishik qo'shim-chasi (bolamni, o'qiganimni);

b) kesimlik shakllari: tasdiq/inkor+zamon/mayl+shaxs+son.

Hamma turdagi affikslardan keyin affiks tipidagi yuklamalar qo'shiladi.

Qo'shimchalarga qo'shilishidagi istisnolar:

a) semantik boshqalik talabi bilan bog'liq bo'ladi;

L) til hodisalarining davrlarga ko'ra **o'zgarishi** (tarix), dialektal farq va o'zgarish xususiyati, poetik talab bilan bog'liq bo'ladi. Misollar: *Bilurlarerd*i (Qutb) -bilar edilar, *qihnag'aylarsiz* («Bobirnom») - qilmag'aysizlar, *solurlarerd*i quloq -quloq solurerdilar.

Bunday tartib o'zgarishlari o'zida nozik ma'noviy farqlarni aks ettiradi.

Shakllarda pleonazm va tejamkorlik. Bir so'zda ma'nolari bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchalarning takrorlanishi (ikki, ba'zan uch) *affiksal pleonazm* deyiladi. Pleonazm affikslarda bir necha ko'rinishlarga ega. Masalan. bir affiksnmg aynan o'zi yoki tashqi shakli xar xil bo'lgan - ma'nodosh affikslar takrorlanadi: takrorlangan bu affikslar a) zich, ketma-ket holda (*ayimg+iz+lar*) ham; b) ajralgan holda ham bo'lishi (*ish+da +\ig+\m+da*) mumkin.

Affiksial pleonazm har xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bir affiks o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak o'z mustaqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchanning ma'nodoshlaridan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi (*ichkariga, tashqariga, nariga, beriga, barisi* kabi). Takrorlanyotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» bo'lsa, ular ta'kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi (*sizlar aytingizlar* kabi). Boshqa tildan kirgan affikslar tushunarii va keng iste'mol bo'lmaganda ham uning tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (*yor+on+lar* kabi). Qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi tovush o'zgarishlari ham ma'nodosh affikslarning qo'shilishiga sabab bo'ladi: **yarmisi**, *kichkinagina, unisi, anavinisi, qaysinisi, singlisi, toychoqcha* kabi.

Pleonazm aksariyat hollarda til evolyutsiyasi bilan bog'liq hodisadir. Bunga o'zbek tilining akademgrammatikasida ayrim izohlar berilgan: 1. Ot va sifat yasovchi —**lik** affiksi farqlanib, vazifasi ajralishishi (-// sifat yasaydi, *-lik* ot yasaydi) natijasida ular ketma-ket qo'llanadigan bo'lgan: *aqllilik, ifodalilik, bilimlilik*. 2. Og'zaki so'zlashuv nutqida ba'zan uchrab qoladigan mashshoqchi, xodimchi kabi so'zlarda «bajaruvchi» ma'nosi **ikki** marta ifodalangan: ichki fleksiya (arab tilida *mashshoq* -mashq qiluvchi shaxs, xodim - xizmat qiladigan shaxs) va *-cha* affiksi orqali. 3. Bir xil ma'nodogi ikki affiks qo'shma affiks maqomini oladi: *yog'ingarchilik, namgarchilik, rasvogarchilik* kabi. 4. Kelishik va egalik affikslarining ikki marta ifodalanishi (kitobni uch *so'mdanga* oldi, romanning *so'zboshisi*) ham pleonazmning o'ziga xos ko'rinishidir. 5. Bir qo'shimchanning o'zi takrorlanganda, ko'pincha ular morfema fonetik variantlarining qator kelishi tusida bo'ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): *qistalang (-ta, -la), shoshilinch (-/, -n), tiqilinch (-/, -n)* kabi. 6. Bir ma'nodogi ikki affiksning ketma-ket qo'llanishi analogiya natijasida tug'ilishi ham mumkin. Masalan, **biri** - *birisi, yig'loq- yig'loqi, sayroq- sayroqi, o'ynoq-o'ynoqi*.

Tejamkorlik pleonazmning ziddidir. Tildagi tejamkorlik tamoyili so'zlovchi (individ)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib

qoldirish orqali tejash, kommunikatsiyaga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojlaridan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumtil tendensiyasidir. *Op keling* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi hodisalar bunga misol bo'ladi. Tejamkorlikning fonetik, morfologik ko'rinishlari mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik-irik, yigit-igit*

Atama - bu biron-bir soha (fan, texnika, san'at va h.k.)ga tegishli muayyan tushuncha yoki maxsus narsani aniq ifoda etadigan so'z yoki so'z birikmasidir. Atamalarga qo'yiladigan talab - ular bitta ma'noli bo'lishlari kerak. Tilning lug'aviy majmuasida ular alohida bir salmoqli qatlamni tashkil qiladilar. Bunday so'zlar jamiyat tomonidan yasalishi, tartibga solinishi va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan yagona qatlamdir. Shuning uchun deyarli hamma tillarda atamalar ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Sohaviy atamalarni tayyorlash yoki ularni me'yorlashtirish uchun tilshunoslar va o'sha sohadagi mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruhlar, qo'mitalar tashkil qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida bunday yondoshish boy tajribaga ega. Ingliz va o'zbek tillarida atamasozlikka taxminan o'tgan asrning o'rtalarida birinchi bor e'tibor qaratilgan. O'sha paytda "Dehli urdu kolleji" oliy ta'limni ilk bor mahalliy til - urduda joriy etishga kirishgan edi. Shuning uchun urdu atamasozligi borasida ancha ish qilingan.

O'sha paytda urduga ingliz tilidan birmuncha sohalarga tegishli atamalar tarjima qilingan va kitoblar tayyorlangan.

Keyinchalik bunday ishlar urduning har xil idora va tashkilotlarida ham olib borildi. Lekin eng katta ish 1918 yilda ochilgan Osmaniya universitetida amalga oshirildi. Bu yerda turli fan sohalariga tegishli kitoblar va qo'llanmalar yozildi va bir necha minglab atamalar tayyorlandi. Hozirgi paytda ham ular o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Bunday idoralarda tayyorlanayotgan va tavsiya etilayotgan atamalar matbuotda ham muhokama qilinadi.

Yangi atamalar, xususan siyosiy va ijtimoiy atamalar ommaviy axborot vositalarida keng ko'lamda vujudga kelib, Ingliz va o'zbek tillarining shu qatlamini boyitmoqda.

Yangi atamalar yasashida turli manbalardan foydalanilmoqda.

Birinchi navbatda tub va arab-fors unsurlari ishlatilmoqda. (Misollar kosmonavtika va boshqa zamonaviy siyosiy-ijtimoiy tushunchalarni ifoda etuvchi atamalar tufayli ko'rsatiladi).

Ingliz va o'zbek tillarida atamalar paydo bo'lishiga yana bir muhim manba, ingliz tili bo'lmoqda. Undagi ko'p atamalar butunligicha urduda qo'llanilmoqda {*Ta:ypra:yTar, jeT, kampyuTar, Ti:vi:, vi:si:a:r*).

Yana bir manba - gibrud usulidir. Bunda arab-fors, hind va ingliz so'zlari yoki so'z yasovchi unsurlari keng ko'lamda ishlatiladi (*du:r ma:r miza:il, la:ysansya:fta, eTami: tava:na:i:, ra:kiTsa:zi:*).

Hozirgi paytda bir narsa, yoki tushuncha uchun tilda bir necha atamalar mavjud. Ular o'rtasida "raqobat" kechmoqda. (Saylov – *inti:xa:ba:t, ilekshan, chuna:o;* provinsiya bosh vaziri – *chi:...th minisTar, vazi:re – a:la:, baRa: vazi:r, mukhya: mantri*). Bunday atamalarning ishlatilishi muayyan muammolar ham keltirishi mumkin. Lekin tilda ishlatilish jarayonida ulardan bittasi g'olib chiqadi yoki ularda uslubiy yohud ma'noviy siljishlar vujudga keladi. Demak, bu yo'sinda me'yorlashtirish amaliyoti, sekin bo'lsa-da amalgam oshmoqda.

Hulosa

Kishilar til vositasida o'z fikrlarini, his-tug'ularini ifodalaydilar. Kishilik jamiyatining rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan til va uning ravnaqi ilm-fan, madaniyat, texnika taraqqiyotini ta'minlashda ham asosiy omil bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi har qanday o'zgarishlar, avvalo til tizimining lug'at boyligida o'z izini qoldiradi. Xususan, ilm-fan, texnika taraqqiyoti yoki jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan yangi narsa-buyumlar, tushunchalar tilning lug'at boyligini yangilanishga olib keladi.

Hozir butun dunyoda 6 milliardga yaqin aholi mavjud bo'lib, ular 3000 ortiq tilda so'zlashadi. Shundan 200 tilda bir millionga yaqin, 70 tilda 5 milliondan ortiq, 13 tilda esa 50 milliondan ortiq kishi so'zlaydi. Qolganlarining har birida bir milliondan oz kishi gaplashadi.

Ma'lum bir millatga mansub bo'lgan xalqning nutqiy ehtiyoji uchun xizmat qiladigan til **milliy til deyiladi**. Xususan, o'zbek tili shu millatga mansub bo'lgan xalq ehtiyojiga xizmat qiladigan tildir. Yer yuzida milliy tillardan tashqari mamlakatlararo va mintaqalararo ahdlashuv, shartnoma hamda bitimlarni rasmiylashtirishda ishlatiladigan **xalqaro tillar** ham mavjud. Ular jumlasiga ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus, arab va xitoy kabi tillar kiradi.

So'z birikmasi bilan gap o'rtasida farq kattadir. So'z birikk-masi nominatsiya (atash) funksiyasini bajarishi jiqatdan so'zga yaqii turadi va u gap singari intonatsion tugallikka ega bo'lmaganligi uchun kommunikativ birlikni tashkil qilmaydi.

So'z birikmasining turlari (Types of Phrases). Suz birikmask strukturasi bir so'z q o k i m (head), qolgani t o b e (subordinate) bo'ladi. Odatda sifat bilan ot birikkanda sifat tobe, ot hokim; ravish bilan fe'l birikkanda fe'l hokim, ravish tobe bo'ladi: a powerful man, a grey suit, Red Square, curly hair, enormous eyes, little regular features, neatly dressed, play well; said smilingly, beamed with pleasure. hokim so'z fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, fe'lli so'z uupuic-ma, ot bilan ifodalangan bo'lsa, otli so'z birikma, olmosh bilgn ifodalangan bo'lsa, olmoshli so'z birikma,

ravish bilan ifodalash: -g;sh bo'lsa, ravishli so'z birikma, son bilan ifodalangan bo'lsin, spnli so'z birikma deb yuritiladi.

hozirgi zamon ingliz tilida ot -f ot tuzilishidagi so'z birikmasi ko'p uchraydi. Ot - (- ot so'z birikmasi ham o'z iavbatida bpr necha ko'rinishga ega:

- 1) bosh kelishidagi ot + ot stone wall, uncle Tom
- 2) haratqich kelishidagi ot + ot Rahim's book, - Tom's sister

OT + OT so'z birikmasi ko'p qollarda predlog bilan ham ke-ladi:

Ot + of + ot a drop of rain, the edge of the shelf.

OT + with + OT

Aniqlovchining otdan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra so'z birikmasi bir necha turlarga bo'linadi. Bunday holat variantlari deyilib, u so'z birikmasining ichidan kengayishi natijasida sodir bo'ladi.

So'z birikmalarining ko'p uchraydigan turi sifat+ot birikmasi ham taalluqlidir: Big Ben, white hair, an old man, stage hunter.

Mazkur so'z birikmasining sifat + predlog + ot turi ham mavjud. Masalan: afraid of work. Bu turdagi so'z birikmasida ikkita sifat ketma-ket kelishi mumkin. Sifat + sifat + ot so'z birikmasi ham ko'p qo'llanadi. Masalan: new high buildings. So'z birikmasining boshqa turlari ham mavjud:

Gapning bosh (ega, kesim) va ikkinchi darajali (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) bo'laklari bo'ladi. Ega va kesimning o'zidagina iborat bo'lgan gap sodda yig'iq gap deyiladi, masalan: Kuz keldi. O'quvchilar qatnashdilar kabi.

Gapda ega va kesimdan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham bo'lsa, bunday gap sodda yoyiq gap deb ataladi, masalan: O'bekistonga kuz keldi.

Ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tuzilib, murakkab fikrni bildirgan gap qo'shma gap deyiladi.

Gapda so'zlar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Gapdagi so'zlar ikki xil yo'l bilan boqlanadi: teng boqlanish va ergash bog'lanish.

Teng huquqli so'zlarning bog'lovchi yordami bilan yoki bog'lovchisiz o'zaro birikishi teng bog'lanish deyiladi, masalan: daryo va dengiz, kuzat va tingla

kabi birikmalarda soʻzlar teng huquqli, chunki ular boshqa soʻzlarga nisbatan bir xil munosabatda boʻladi.

Soʻzlarning biri ikkinchisiga tobe boʻlib, uni aniqlab, toʻldirib, izohlab kelishi ergash bogʻlanish deyiladi. Aniqlanadigan soʻz bosh soʻz (ergashtiruvchi soʻz), aniqlaydigan soʻz esa ergash soʻz (ergashuvchi soʻz) deyiladi. Soʻzlarning oʻzaro ergash bogʻlanishi uch turli boʻladi: moslashuv, boshharuv va bitishuv.

Bir soʻzning ikkinchi soʻzga ergashib, u bilan rod, son, kelishik yoki shaxs jihatdan moslashib bogʻlanishi moslashuv deb ataladi.

Bir soʻzning boshqa soʻz talabiga koʻra maʼlum (old koʻmakchili yoki old koʻmakchisiz) vositali kelishikda turishi boshharuv deyiladi.

Bir soʻzning ikkinchisi bilan moslashmay, boshharilmay, faqat maʼno jihatidan bogʻlanishi bitishuv deyiladi.

Morfonologik analiz tilning leksik yarusini tekshirishda ham katta roʻl oʻynaydi. Chunonchi, leksema va uning variantlarini hamda allolekslarini bir-biridan farq qilishda morfologik printsiptga tayaniladi. Masalan: shahar - shaharmi - shaharimiz shahar - shahrim – shahrimiz.

Shahar leksemasi ikki alloleksdan iborat: Shah -ar .

Sintaktik paradigmatika nuqtai nazaridan shahar soʻzining ikki xil birikmada kelishini solishtirib koʻramiz.

Masalan: bu katta shaharda - bu shahri azimda va boshqalar.

Sintaksis (syntax) yunoncha (syntaxis) tuzish soʻzidan olingan boʻlib, soʻz. birikmalari va gaplarning yasaliş usullarini, sintaktik formalar birliklaridan anglashilgan maʼnolarni oʻrganadi. Sintaksisda asosiy birlik soʻz birikmasi va gap boʻlib, ular sintaksisning oʻrganish obʼekti hamdir.

Soʻz turkumlari va soʻz formalari faqat soʻz birikmalarida va gaplarda shakllanishi mumkin. Sintaktik konstruksiyalar esa oʻz navbatida soʻz turkumlari va ularning formalaridan tashkil topadi. Bu jihatdan morfologiya va sintaksis oʻzaro bogʻliqdir. Sintaksis morfologiyani oʻzining ishtirokchisi sifatida oʻz ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Tarihiy hotirasiz kelazhak yo'q - T.: Sharq, 1998.-B. 32
2. Salomov G'. Tarzhima nazariyasi asolari -T.: O'qituvchi, 1983. -B. 232.
3. Karimov I. A., Po puti sozidaniya - Toshkent: Uzbekistan, 1996. - Tom 4.
4. Jo'raev K. Tarjima san`ati - Toshkent: Fan, 1982. -B. 60.
5. Salomov G'. va boshqalar, Tarjimon mahorati // Ilmiy ishlar to'plami -Toshkent: Fan, 1979.
6. Salomov G', A`zamov S. Tarjima asoslari // o'quv qo'llanma - Toshkent: adabiyot va san`at nashriyoti, 1976. - B. 88.
7. Milliy istiqlol g'oyasi // Bibliografiya, 1-kitob, -Toshkent: 2001. - B. 31.
8. Milliy istiqlol g'oyasi//Annotasiyali bibliografiya -T.: 2001. -B. 91
9. Tarjima muammolari//maqolalar to'plami. -Toshkent, 1991. -B. 201.
10. Iqtisod va hayot, -Toshkent: 1997, -№7-8, -B. 2.
11. Inson baht uchun tug'iladi // O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning hikmatli so'zlaridan -Toshkent: Sharq, NMAK bosh tahririyati, 2001. -B. 128.
12. Amir Temur o'g'itlari //to'plam -Tashkent: Navro'z, 1992. -B64.
13. Ashurov Sh. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. -T.: 2007.
14. Arnol'd I.V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazika. ? M.: Vysshaya shkola, 1986. ?295 s.
15. Antrushina G. B., Afanas`eva.O. V., Morozova. N.N. Leksikologi angliyskogo yazika. M.: Visshaya shkola, 1985 . 223 c
- 16.Antrushina G. B., Afanas`eva O.B., Morozova N. N. Leksikologiya angliyskogo yazika. M.: Drofa, 2004. 187 s.
17. Buranov J. B., Muminov A. A. A practical course in English Lexicology. T.:O'qituvchi,1990. -168s.
18. Ginzburg R. V., Hidekel S. S., Knyazeva G. YU., Sankin A. A. Leksikologiya angliyskogo yazika. ? M.: Visshaya shkola, 1979. 269 s.
19. Muminov O. Lexicology of the English language. T.: Mehridaryo, 2006. 161 b.

20. Smirnitskiy A. I. Leksikologiya angliyskogo yazika. M.: Visshaya shkola, 1956. 260 s.
21. Smirnitskiy A. I. Morfologiya angliyskogo yazika. M.: Vysshaya shkola, 1959. 440 s.
22. Kunin A. V. Angliyskaya frazeologiya v funktsionalnom aspekte. M.: Visshaya shkola, 1989. 140 s.
23. Shmelev D. N. Problemy semanticheskogo analiza leksiki. M.: Vysshaya shkola, 1973.-292 s.
24. Arakin V. D. Anglo-russkiy slovar. M.: Russkiy yazik, 2002. 590 s.
25. Ahmanova O. S. Slovar lingvisticheskikh terminov. M.: Russkiy yazik, 1969. 692 c.
26. Alen R. The Oxford Illustrated English Dictionary. M.: Astrel, 2003. 553 s.
27. Myuller V. K. Anglo-russkiy slovar. M.: Yunves, 2004. 767 s.
28. Musaev K. M., Kudratov M. Sh. Inglizcha-ruscha-o'zbekcha iqtisodiy lug'at. T.: Fan, 2001. 776 b.
29. Ginzburg R. S. Anglo-russkiy slovar glagolnyih slovosochetaniy M.: Russkiy yazik, 1986. 634 c.
30. Kunin A. V. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. M.: Russkiy yazyik, 1967. 244 s.
31. Tompson D. The Oxford Russian minidictionary. ? M.: Ves` Mir, 2003. 696 s.
32. Tompson D., Kulson D. The Pocket Oxford Russian Dictionary. M.: Ves` Mir, 2002. 623 s.
33. Hokins D. M. Oxford dictionary of the English language. M.: Astrel`, 2002. 828 s.
34. Hidekel S.S., Kaul M.R., Ginzburg E. L. Trudnosti agliyskogo slovo upotrebleniya: Anglo-russkiy slovar-sprovochnik. M.: Menedjer, 1998. 588 s.
35. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. - Toshkent: O'zbekiston milliy enciklopediyasi, 2007.
36. Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarihi. - Toshkent: O'qituvchi, 1-kitob, 3-nashri, 1976. -B. 662.

37. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 1-tom. - Toshkent: Fan, 1977, -B. 328.
38. O'zbek adabiyoti tarihi. 5 tomlik, 3-tom. - Toshkent: Fan, 1978, -B. 380.
39. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2 tomlik, 1-2-tomlar. - Moskva: 1981.
40. Namroev M. O'zbek tilidan ma`ruzalar majmuasi. - T.: 2007, -B 143.
41. Ma`murov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Moskva: Rus tili, 1981.
42. Турсунов, Мухторов Ш, Рахматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т. “Ўзбекистон”. 1992. 216 б
43. Nida. E. Morphology University of Michigan. Press. 1976.
44. Беляева Т.М. «Вопросы английского языка в синхронии и диахронии». Л. 1967. стр. 89.
45. Мюллер. В.К. «Англо – Русский словарь» М. 1962.
46. The World Book Encyclopedia. USA. 1994. №. G.G. Volume p/ 905/
47. Эшниезова М.Қўшма сўз Микросинтагматик муносататига доир. 2004. №1 24-26 бб
48. Lectures of comparative typology, С. Satimov, М. Просвещению 1991 г.
49. Comparative typology V.D. Arakin, М. «Prosveshenie» 1991
50. Comparative grammar, J.I.
51. Internet. Khan M.A. Liggt. Privacy Policy. Terms of Use. www.amjbot.org. 2003. № 90 p
52. Internet: <http://www.wikipedia.com/English/compounds/.htm>
53. Internet: [http://www mpsttu.ru/works/english lexicology/ htm](http://www.mpsttu.ru/works/english lexicology/ htm)
54. Internet:<http://www.yahoo.com/english/.htm>